



**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON
TILLARI UNIVERSITETI**

“YANGI O'ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI YOSHLARI”

Antologiya



**TOSHKENT
2023**

Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni
tijoratlashtirish bo'limi

OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION ISHLANMALARNI
TIJORATLASHTIRISH BO‘LIMI

“YANGI O‘ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI YOSHLARI”


Respublika miqiyosidagi iqtidorli yoshlar biografik to‘plami

ANTOLOGIYA

Toshkent - 2023

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2021-yilda 9-sentabrdagi Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” PF-6309-son farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2021-yil 18-yanvardagi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida iqtidorli yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirish, iqtidorli yoshlarning madaniyat va san’at, kompyuter dasturlash asoslari, robototexnika, axborot texnologiyalari sohasida nufuzli xalqaro tanlov va boshqa musobaqalarda ishtirok etishga rag‘bat uyg‘otish, yoshlarning erkin fikrlovchi, ishbilarmon, tadbirkor hamda intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan bugungi kun yosh qahramonlari timsolini yaratish va uni yoshlar orasida keng ommalashtirish, jamiyatda mamlakatimiz istiqboli uchun tashabbuskor, shijoatli, iqtidorli yoshlarni faollikka, ilmga chorlash, qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan “YANGI O‘ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI YOSHLARI” nomli respublika miqyosidagi iqtidorli yoshlar biografik to‘plami

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2023



ESANOV AZIZBEK SHERMAMAT O‘G‘LI

1997-yil 20-sentabr sanasida Surxondaryo viloyati

Bandixon tumanida o‘qituvchilar oilasida tavallud topgan.

2004-2013-yillar davomida Termiz shahridagi 8-sonli

umumiy o‘rta ta’lim maktabida tahsil olgan. Maktab davridan yosh

Azizbek Esanov ilmga mehr qo‘ygan, barcha fanlardan bilimlar sinovi va fan olimpidalariga muntazam qatnashgan. Jumladan, Fan olimpiadasining Termiz shahar bosqichida matematika fani bo‘yicha 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Barcha fanlardan birday a‘lo baholarga o‘qib, maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan tamomlagan.

2013-2016-yillarda Termiz davlat universiteti qoshidagi 2-son Akademik litseyi Xorijiy filologiya yo‘nalishida tahsil olgan. Akademik litseyda o‘qish mobaynida nafaqat oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rish bilan birgalikda turli fan olimpiadalari va ko‘rik tanlovlarda faol qatnashgan. Barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qib, litseyni imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

2016-yilda Termiz davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishiga davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan. Azizbek Esanov bakalavriat bosqichida ham o‘z ustida ishlashda davom etgan, xorijiy tillarni puxta o‘rgandi, o‘zining ilmiy faoliyatga bo‘lgan dastlabki qadamlarini tashlagan. Mazkur yutuqlarini hisobga olib, 2018-yilda ISLOM KARIMOV NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASIGA loyiq deb topilgan.

2020-yilda bakalavriat bosqichini imtiyozli diplom bilan bitirib, shu yili mazkur universitetning Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligiga davlat granti asosida imtiyozli ravishda qabul qilingan. Azizbek Esanov magistratura bosqichida o‘zining ilmiy faoliyatini “Concept “Friendship” in Diplomatic Discourse” mavzusida davom ettirgan. Magistratura

bosqichida barcha mutaxassislik fanlarini puxta o‘zlashtirib, 2022-yil fevral oyida Gumanitar fanlar bo‘yicha O‘zbekiston respublikasining prezidenti davlat stipendiyasiga loyiq deb topilgan.

2022-yilda magistratura bosqichini imtiyozli diplom bilan tamomlaganidan so‘ng, o‘z ilmiy faoliyatini yangi bosqichda davom ettirish uchun Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetiga hujjatlarini topshirgan va 2023-yil yanvar oyida imtiyozli ravishda 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligiga qabul qilingan. Hozirda Azizbek Esanov Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining 1-bosqich tayanch doktoranti hisoblanadi va ilmiy rahbari Ya.Yu.Arustamyan bilan birgalikda “Psycholinguistic specificity of the English and Uzbek political discourses” mavzusida o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Azizbek Esanov oliy ta’lim bosqichidagi tahsili davomida mutaxassilik fanlarini chuqur o‘rganish barobarida xorijiy tillarni ham puxta egallagan. Xususan, ingliz tilini baholashning xalqaro tizimi – IELTS imtihonida 2 marotaba 7.5 ball (2020, 2022) va bir marotaba 8.0 ballni (2023) qo‘lga kiritgan. Shuningdek, o‘tgan yetti yil davomida turli darajadagi respublika va xalqaro tadbirlarda o‘zining volontyor tarjimonlik xizmatini a’lo darajada bajargan. Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan Prezident sovrini uchun Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro Kurash turnirlari, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Open South International Business Forum II” Xalqaro biznes forumlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlarining saylov jarayonlari shular jumlasidandir.

Esanov Azizbek o‘z zimmasiga yuklangan har bir ishga mas’uliyat bilan qaraydigan mutaxassis hisoblanib, o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan tengdoshlari va hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda, o‘zining o‘quv va kasbiy faoliyati mobaynida turli xil tadbirlarda, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan konferensiya, forum va ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, bir qancha sovrinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Azizbek Esanov 2016-2023-yillar davomida:

Termiz davlat universiteti doirasida tashkil etilgan bir qator ilmiy-ijodiy tadbirlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan. Jumladan:

“Zakovat”, “Zukko kitobxon”, “Tafakkur sinovlari”, “English Speech Contest” intellektual o‘yinlari ko‘rik tanlovlarining faol ishtirokchisi, “Yoshlar haftaligi”, “Yoshlar – kelajak bunyodkori!”, “30 iyun - Yoshlar kuni”, “Yil E’tirofi-2020” nomli bayram tadbirlarida “Eng faol tadqiqotchi talaba”, “Eng yaxshi tarjimon”, “Yil talabasi-2020” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topilgan.

Respublika miqyosida o‘tkazilgan turli darajadagi ilmiy-ijodiy tadbirlar, xususan, “Xalqaro yoshlar sammiti”, “Xalqaro Sport sammiti”, “Creative Youth Online Conference”, “Diplomat MUN” (Model United Nations), “Dream Forum”, “Target Future-2020”, “Development”, “TMUN” (Termez Model United Nations), “Solidarity forum for Afghanistan and Uzbekistan Youth”, “Yosh liderlar”, “Young Businessmen and Economists Forum” kabi yoshlar forumi va konferensiyalarining, shuningdek “Ibrat tillar oromgohi”, “Ibrat TOP-100 Universities” yozgi oromgohlari va AQSH Elchixonasi tashkil etgan National Spelling Bee musobaqalarining faol ishtirokchisi, “O‘zbekiston bahori” (2018, respublika bosqichida 3-o‘rin) hamda “DUEL” (2021, viloyat bosqichida 1-o‘rin) ijod festivallari g‘olibi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, hozirda Esanov Azizbek o‘zining ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy ishlarini faol davom ettirib kelmoqda. Uning shu paytgacha 20 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari respublika va xalqaro jurnal va konferensiyalarda e‘lon qilingan. Jumladan:

- ❖ *“Til o‘rganish strategiyalari”(2017);*
- ❖ *“Importance of Corder’s model in analyzing errors of foreign language learners” (2018);*
- ❖ *“An effective model of establishing English for specific purposes (ESP) courses for translators”(2019);*
- ❖ *“An effective way of analyzing language proficiency level in Uzbekistan” (2020);*

- ❖ *“Language choice in diplomatic communications” va “The Emergence of Modern Political Linguistics” (2021);*
- ❖ *“Cognitiv peculiarities of the concept “friendship” va “Linguistic analysis of the concept “friendship” (2022).*

Esanov Azizbek ilmiy faoliyat bilan birgalikda ijtimoiy hayotda ham o‘z faolligini ko‘rsatib kelmoqda. Chunonchi, u Termiz dalat universiteti iqtidorli talabalari uchun “Stipendiat” klubini tashkil etgan. Bundan tashqari Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan “Kelajak liderlari” klubining hamda Respublika Yosh Olimlar Kengashining faol a‘zosi hisoblanadi.

Esanov Azizbek Shermamat o‘g‘li kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassis bo‘lib, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishni, insonlarning hayotini yanada yaxshilashda o‘z bilim va tajribalari bilan yaqindan yordam berishni, va eng asosiysi ilmiy va yuksak salohiyatli avlodlarni voyaga yetkazishni o‘zining oliy maqsadlaridan biri deb hisoblaydi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat Stipendiyasi Guvohnomasini tantanali topshirish marosimidan lavha (2022.02.28)



TOSHBOYEVA LAYLO JURAYEVNA

2001-2007-yillar davomida Oltinsoy tumanidagi 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida tahsil olgan. Maktab davridan ilmga mehr qo‘ygan, barcha fanlardan bilimlar sinovi, fan olimpidalari va sport to‘garaklariga muntazam qatnashgan. Jumladan, Fan olimpiadasining Termiz shahar bosqichida badiiy gimnastika sport turi bo‘yicha 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. 2007-yilda Toshkent shahridagi 181-maktabga o‘qishni ko‘chirib, informatika fani bo‘yicha fan olimpiadasining tuman bosqichida 3-o‘rinni egallagan. 2010-yilda barcha fanlardan birday a’lo baholar bilan ushbu maktabni tamomlagan.

2010-2013-yillarda Olmazor politexnika kasb-hunar kollejining Geologiya yo‘nalishida tahsil olgan. Kollejda o‘qish mobaynida oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rish bilan birgalikda turli ko‘rik tanlovlarda faol qatnashgan. Kollejni barcha fanlardan a’lo baholar bilan tamomlagan.

2016-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishiga talabalikka qabul qilingan. Laylo Toshboyeva bakalavriat bosqichida ham o‘z ustida ishlashda davom etgan, xorijiy tillarni puxta o‘rgandi, o‘zining ilmiy faoliyatga bo‘lgan dastlabki qadamlarini tashlagan.

2020-yilda bakalavriat bosqichini a’lo baholar bilan bitirib, shu yili mazkur universitetning Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligiga davlat granti asosida imtiyozli ravishda qabul qilingan. Laylo Toshboyeva magistratura bosqichida o‘zining ilmiy faoliyatini “Ingliz va o‘zbek tillarida turizm terminlari bo‘yicha lug‘at yaratish prinsiplari” mavzusida davom ettirgan. Magistratura bosqichida barcha mutaxassislik fanlarini puxta o‘zlashtirgan.

2022-yilda magistratura bosqichini a’lo baholar bilan tamomlaganidan so‘ng, o‘z ilmiy faoliyatini yangi bosqichda davom ettirish uchun O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga hujjatlarini topshirgan va 2023-yil yanvar oyida imtiyozli ravishda 13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligiga qabul qilingan. Hozirda Laylo Toshboyeva O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 1-bosqich tayanch doktoranti hisoblanadi va ilmiy rahbari F.S.Abdullayeva bilan birgalikda “Talabalarga turizm sohasiga oid terminlarini raqamli texnologiyalar vositasi orqali o‘qitish metodikasi” mavzusida o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Laylo Toshboyeva oliy ta’lim bosqichidagi tahsili davomida mutaxassilik fanlarini chuqur o‘rganish barobarida xorijiy tillarni ham puxta egallagan. Xususan, ingliz tilini baholashning xalqaro tizimi – IELTS imtihonida 6.5 ball qo‘lga kiritgan.

Shu bilan bir qatorda, hozirda Toshboyeva Laylo o‘zining ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy ishlarini faol davom ettirib kelmoqda. Uning shu paytgacha 20 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari respublika va xalqaro jurnal va konferensiyalarda e’lon qilingan. Jumladan:

“Discourse markers”(2018);

“Formation of the english terminological system of tourism” (2021);

“The compiling principles of uzbek-english dictionary on tourism”(2022);

“Ichki turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv orqali talaba yoshlar orasida ommalashtirish” (2022);

“Ingliz va o‘zbek tillarida turizm terminlarining chog‘ishtirma tadqiqi va tarjima muammolari” (2023);

“Sharq va g‘arb mamlakatlarida turli davrlarda turizm sohasining rivojlanish tarixi” (2022).

Laylo Toshboyeva Jurayevna kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassis bo‘lib, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishni, insonlarning hayotini yanada yaxshilashda o‘z bilim va

tajribalari bilan yaqindan yordam berishni, va eng asosiysi ilmi va yuksak salohiyatli avlodlarni voyaga yetkazishni o‘zining oliy maqsadlaridan biri deb hisoblaydi.



Magistrlik diplomini tantanali topshirish marosimidan lavha



YAXYOPO‘LATOVA NILUFARXON BOTIRJON QIZI

2001-yil 1-aprel sanasida Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida tavallud topgan. 2007-2016 yillarda Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida joylashgan 2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tahsil olgan. Ta‘lim olish mobaynida barcha fanlarni a‘lo baholarga o‘zlashtirishi, namunali xulqi, turli tadbirlar, bilimlar bellashuvlari, fan olimpiadalar, respublika, viloyat, tuman miqiyosidagi ko‘plab tanlovlardagi faol ishtiroki bilan tengdoshlariga namuna bo‘lgan. Maktab davridanoq ilm-fanga, adabiyotga mehri o‘zgacha bo‘lib, bir qator she‘rlari va maqolalari chop etilgan. “Uchqo‘rg‘on g‘unchalari” nomli tuman gazetasida chop etilgan “Baxtimizning qomusi”, “Muqaddas-O‘zbekistonim” she‘rlari, “Yaxshi maqsad va intilish” publitsistik maqolasi shular jumlasidan. Bundan tashqari bo‘sh vaqtida qo‘g‘irchoq teatri to‘garagiga ham faol qatnashgan. “Badiiy nafosat bilimdonlari” ko‘rik tanlovining jamoaviy “Qo‘g‘irchoq teatri” yo‘nalishi bo‘yicha tuman, viloyat bosqichlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan yakuniy respublika bosqichida faol ishtirok etgan. 2016-yil barcha fanlarni a‘lo baholarga o‘zlashtirib, maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan muvaffaqiyatli tamomladi.

2016-yil Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on Pedagogika kolleji “Kompyuter injineri texnigi” yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi “Yoshlar ittifoqi”ning Uchqo‘rg‘on pedagogika kolleji bosh yetakchisi, kollej radiosi bosh koordinatori sifatida turli ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirdi. Kollejda o‘qish davomida ko‘plab tadbirlar, tanlovlarda faol ishtirok etdi,

Jumladan:

“Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti uchun o‘tkazilgan tanlovning tuman bosqichi g‘olibasi, viloyat bosqichi faol ishtirokchisi.

Namangan viloyat hokimligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, viloyat ma’naviyat va ma’rifat markazlari tomonidan tashkil etilgan “Mahalla – mening taqdirimda” ko‘rik tanlovi g‘olibi.

“Yoshlar Ittifoqi” tomonidan o‘tkazilgan, “Mening birinchi ijodiy ishim” tanlovining “Maqolalar” va “Nazm” har ikkala yo‘nalishlari bo‘yicha faxrli 1-o‘rin sohibasi;

“Yosh kitobxon” tanlovining 2 karra tuman g‘olibi va viloyat bosqichida faol ishtirokchi.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan “Eng iste’dodli kitobxon” ko‘rik tanlovining tuman bosqichi g‘olibi va yakuniy viloyat bosqichida faxrli II o‘rin sohibasi;

Namangan viloyat hokimligi tomonidan tashkil etilgan “O‘zbekiston umumiy uyimiz” shiori ostidagi tanlovda Insholar yo‘nalishi bo‘yicha faxrli 2-o‘rin sohibasi;

Xalqaro toifadagi International English Language Testing System (IELTS) 6.0 sertifikat sohibasi. Kollejni “Kompyuter injineri texnigi” yo‘nalishi bo‘yicha barcha bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli egallab imtiyozli qizil diplom tamomladi.

2020-yil O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozir kunda ingliz tili 3-fakulteti 3-bosqich talabasi va shu bilan birga O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashirish bo‘limida muhandis sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda. Universitetda barcha fanlarni a’loga o‘zlashtirib, chet tillarini jumladan, ingliz, nemis, koreys tillarini puhta o‘rganib kelmoqda, jamoat ishlarida, Respublika va xalqaro miqiyosdagi turli ilmiy-amaliy anjumanlarda, tanlovlar, ma’naviy-ma’rifiy loyihalardagi faol ishtiroki va namunali xulqi bilan tengdoshlariga namuna bo‘lib kelmoqda.

10 dan ortiq tezis va maqolalar, 40 dan ortiq respublika va xalqaro miqiyosdagi sertifikatlar sohibasi.

❖ “Digital and Information technologies in education process”; The 7th International Student Symposium: “Celebrating research & Creative Endeavor”. Book of Abstracts. Samarkand, 2022

❖ “Tarjima mahorati: OAVdagi tarjima matnlari tahlili”; “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: Tahlil, tasnif, Qiyos” Tashkent -2022

- ❖ “Xorijiy tillarni o‘rganishning inson hayotidagi ahamiyati”; “Innovatsiya 2022:Dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar” Toshkent-2022
- ❖ “Mashina tarjima tizimlari va nutq texnologiyalari”; “Computational linguistics: Challenges and solutions”, Tashkent -2022
- ❖ “The importance of native language in the process of learning foreign languages”; “International Scientific forum” Multidisciplinary scientific and practical conference. Tashkent -2023
- ❖ “The sweet liar Kid” story; “The work of fiction of talented uzbek creators” Poems, stories, fairy tales , Just Fiction Edition. 2022, Dodo Books Indian Ocean Ltd. And OmniScriptium S.R.L, publishing group. Republic of Moldova, Europe.

Nilufarxon o‘qishdan, izlanishdan aslo charchamaydi, doimiy ravishda xalqaro kurslarda o‘qib, bilimlarini oshiradi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi.

Quyida Yaxyopo‘latova Nilufarxon tahsil olgan va muvaffaqiyatli tamomlagan bir qator respublika va xalqaro miqiyosdagi kurslar ro‘yxati:

HP Foundation tomonidan tashkil etilgan “Effective Leadership” kursi; Global Nutrition Cluster and UNICEF Foundation tomonidan tashkil etilgan “Developing an Information-Sharing and Data Confidentiality Policy” kursi; HP Foundation tomonidan tashkil etilgan “Inventory Management” kursi; Save the Children & CSOD Foundation tomonidan tashkil etilgan “Personal Security Awareness” kursi; The OPEN University tomonidan tashkil etilgan “Assessment in secondary modern foreign languages” tayyorlov kursi; ETS Global tomonidan tashkil etilgan “The TOEFL ITP Level 1 Preparation Course for Teachers STEP 4: Speaking” vebinari; Asian Development Bank Institute (ADB Institute) tomonidan tashkil etilgan “Rethinking Higher Education Financing and Policies in a Changing World” kursi; Toshkentdagi Amerika elchixonasi (American center in Tashkent) tomonidan tashkil etilgan 4 haftalik “O‘zbekistonda fuqarolik jurnalistikasini rivojlantirish” kursi; Toshkentdagi Amerika elchixonasi (American center in Tashkent) tomonidan tashkil etilgan 15 haftalik “Iqlim savodxonligi” kursi; “IT School Namangan” filialida “Kompyuter savodxonligi” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oldi. 2022-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan

“International investment forum.Tashkent 2022” forumida voluntior tarjimon sifatida faol ishtirok etdi.

Respublika Yosh maslahatchilar kengashi tomonidan tashkil etilgan “Ta’lim granti” loyihasi doirasida nemis tili bo’yicha 4 oylik bepul ta’lim granti sohibasi. Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan talaba-yoshlar orasida kitob o’qishni targ’ib qilish hamda kitobxon yoshlarni rag’batlantirish maqsadida tashkil etilgan "Birga kitob o’qiyimiz" media loyihasining 4-sonida O’tkir Hoshimov qalamiga mansub, “Ikki eshik orasi” romani taqrizi bilan faol ishtirok etdi. Ta’kidlab o’tganimizdek, Nilufarxon chet tillariga qiziqishi baland va hozirda 4 tilda: ingliz, rus, nemis, koreys tillarida muloqot qila oladi.

Bundan tashqari, Oliy ta’lim muassasaslari doirasida o’tkaziladigan tanlovlarda ham doimo faol. “Vatan mehri yuragimda” ko‘rik tanlovi universitet bosqichida faxrli 2-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston, Germaniya, Turkiya, Rossiya va Fransiya kabi davlatlarning yetkachi ilmiy markazlari ishtirokida o’tkazilgan xalqaro forumda o‘z ilmiy maqolalari va takliflari bilan faol ishtirok etib, "Ilg‘or tadqiqotlar -ilmiy markazi" tomonidan "ILM-FAN IFTIXORI" ko‘krak nishoni bilan tantanali ravishda taqdirlandi.

O‘zDJTU talabalari o‘rtasida o’tkazilgan “Aleksandr Fayenberg she’rlarining eng yaxshi ijrochisi “ tanlovida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan iqtidorli yoshlar uchun tashkil etilgan "Ibrat & Wiki" oromgohining qishki 1-mavsumiga 2 bosqichli saralash imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, 20-26-fevral kunlari Bo'stonliq tumanida joylashgan "Yoshlar oromgohida" faol ishtirok etdi. Turli seminarlar, maxsus treninglarda qatnashib EnWikipediaga O‘zbekiston haqida bir qator inglizcha maqolalar joyladi. Mavsum so‘ngida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sadullayev tomonidan Sertifikat bilan taqdirlandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi binosida 16-17-mart kunlari bo‘lib o‘tgan "Bahorgi tijoratlashtirish" forumida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti nomidan vakil sifatida faol ishtirok etdi.

Talaba va o‘quvchilarning ma’naviy yuksalishiga ko‘maklashish markazi tomonidan ijodkor talaba-yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish va munosib rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan “Mushoira klubi” a’zosi.

O‘zDJTU talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan “Eng notiq talaba” tanlovining fakultet bosqichi g‘olibi.

Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va “Foreign languages” telekanali hamkorligida tashkil etilgan “Debate” televizion loyihasi faol ishtirokchisi.

Nilufar Yaxyopo‘latova kelajakda o‘tkir zehqli, kuchli bilimli, salohiyati yuqori inson sifatida vatanimiz ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishiga tilakdoshmiz.



“Innovatsiya 2022:Dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani taqdirlash marosimidan lavha. Nilufarxon Yaxyopo‘latova O‘zDJTU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor G.Bakieva va ilmiy rahbari Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) F.Abdullayeva bilan.



QO‘ZIYEVA SHAHRIZODA G‘AYRAT QIZI

Qo‘ziyeva Shahrizoda 2000-yil 1-yanvarda Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida tug‘ilgan. Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi. 2022-2023- o‘quv yilida

Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi;

MDH davlatlari orasida o‘tkazilgan "Eng yosh olim-2021" tanlovi g‘olibasi;

Hikoyalari Turkiyaning "Türkçe'nin dünyadaki özbek sesi", AQShning nufuzli Amazon nashriyotidagi "Talented Voices Of Uzbekistan", antologiyalarida, Respublikaning "O‘qituvchi", "Ustozlar uchun" jurnallari, "Hilol" to‘plami, "Urganch universiteti", "Yoshlar ovozi", "Ezgu so‘z", "Ma'rifat", "Ezgulik" hamda Tailand, AQSh, Hindiston, Canada, Buyuk Britaniyada nashr etiladigan "Kenya Times", "Red Times", "Page 3 news", "RKDxTimes" gazetalarida davomli chop etilib kelinmoqda

Germaniyaning nufuzli "Globe edit" nashriyotida ingliz tilida "Interpretation of images in the Stories of Shukur Kholmirezayev" nomli ilk ilmiy monografiyasi, "Xorazm yoshlari" nashriyotida "Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti muammolari" fanidan "Mustaqil ta'lim mashg‘ulotlarini tashkil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar" nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi hamda "Xorazm yoshlari" nashriyotida "Moziydan ziyoga qadar" 3-mualliflik kitoblari chop etildi.

O‘zbekistonda ilk marotaba tashkil etilgan "Shine Girls Academy" (Shine qizlar akademiyasi)ni muvaffaqiyatli tugatib, akademianing xalqaro sertifikatini bilan taqdirlangan.

- ❖ Misrning "Creative Forum for culture, Arts and Peace" tashkiloti, Pokistonning "Iqra Foundation" tashkiloti, Argentinaning "Juntos por las Letras" Xalqaro tashkilotlariga a'zo va a'zolik guvohnomalari bilan taqdirlangan.

- ❖ Qozog‘iston Respublikasi "Qo‘sh qanot" fondi qoshidagi shoir va yozuvchilar uyushmasining rasmiy a‘zosi va a‘zolik guvohnomasi bilan taqdirlangan.
- ❖ "Qo‘sh qanot" jamg‘armasi Xorazm viloyati bo‘lim boshlig‘i
- ❖ Portugaliyaning Himan Right organizatsiyasi volontyori
- ❖ 30 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar muallifi,
- ❖ Urganch davlat universitetida o‘tkazilgan "Gulshanaro gulchehralar" ko‘rik-tanlovi g‘olibasi,
- ❖ Urganch davlat universitetida o‘tkazilgan "Yil talabasi-2022" ko‘rik-tanlovida 2-o‘rin sohibasi bo‘lgan va 1.500000 so‘m pul mukofoti bilan taqdirlangan.
- ❖ 30dan ortiq konferensiyalar qatnashchisi.
- ❖ Filologiya fakultetida o‘tkazilgan "Yil talabasi-2022" ko‘rik-tanlovida 1-o‘rin sohibasi;
- ❖ "Moziydan ziyoga qadar" loyihasi asoschisi.

Shukur Xolmirzayev nasrida obrazlar tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot ishi olib boradi. Ilmiy maqolalari O'zbekiston, Angliya, Hindiston, Praga, AQSh, Niderlandiya, Fransiya, Canada, Turkiya, Avstraliya, Rossiya kabi davlatlarda davomiy chop etib kelinmoqda. "The image of an eagle in the story of Shukur Kholmirzaev", "A symbol of hope in the story of Shukur Kholmirzaev", "A symbol of devotion in the story of Shukur Kholmirzaev", "Interpretation of the psyche of the heroes in the stories of Shukur Kholmirzaev", "Shukur Xolmirzayev hikoyasidagi ovchi obrazi", "Shukur Xolmirzayevning "cho‘loq turna" hikoyasidagi qushlar tahlili", "Shukur Xolmirzayevning "Qariya" hikoyasidagi Qo'ziboy chol obrazining "bevaqt o‘limi" nomli ilmiy maqolalari OAK ro‘yxatidagi va Yuqori impak factorli jurnallarda chop etilgan.

Qo‘ziyeva Shahrizodaning ilm fan sohasidagi shijoati, g‘ayrati kelgusida yanada ko‘proq, yuksakroq muvaffaqiyatlarga yetaklashiga ishonamiz. Kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.



Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi guvohnomasini tantanali topshirish marosimidan lavha. Qo‘ziyeva Shahrizoda Urganch davlat universiteti rektori, fizika-matematika fanlari doktori Bahrom Abdullayev bilan



SAIDOV OLIMJON AMON O‘G‘LI

Saidov Olimjon 1998-yil 21-iyulda Buxoro viloyati Kogon tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. Saidov Olimjon boshlang‘ich maktabni Buxoro viloyati Buxoro shahrida 39-IDUMda ta‘lim olgan. Saidov Olimjon maktabda a‘lo baholarga va yuqori natijalarga erishib 2014-yilda ushbu maktabni A‘lo baholar bilan tugatdi. Saidov Olimjon 2014-yillarda Buxoro davlat universiteti qoshidagi axborot texnologiyalari akademik litseyi tabiiy fanlar yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilingan. Saidov Olimjon 2017-yilda ushbu akademik litseyni imtiyozli(qizil) diplom asosida tamomlagan.

Saidov Olimjon 20219-yil Buxoro davlat universitetiga 1-bosqichga qabul qilingan bo‘lib shu kundan boshlab tirishqoqligi, mehnatsevarligi, bilimga chanqoqoligi, ziyrakligi va tirishqoqligi bilan ko‘zga tushdi va institutning iqtidorli talabalari safiga qabul qilindi. A‘lo o‘qishlari bilan birgalikda o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha jonkuyarligi bilan boshqa talabalardan ajralib turadi. Saidov Olimjon jamoat ishlarida faolligi va intiluvchanlik qobiliyati bo‘lganligi sababli Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 2.2 kim-19 guruhida Guruh Sardori bo‘lib faoliyat olib boradi.

Saidov Olimjon 2023-yil Xalqaro konfrensiyada ishtirok etib “Ilm fan iftixori” ko‘krak nishoni sovrindori.

Saidov Olimjon Respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda qatnashib faxrli o‘rinlar, sertifikat va diplomlar bilan taqdirlandi:

- ❖ “International Scientific Forum” xalqaro konferensiya ishtirokchisi
- ❖ 20dan ortiq xalqaro va mahalliy konferensiyalarda ishtirok etib sertifikat va diplomlar bilan taqdirlangan

- ❖ Mirzo Ulug‘bek vorislari tanlovida 1-bosqichdan yuqori natijalar bilan o‘tib hozirga o‘zining yangi innovatsion loyihasi bilan viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan
- ❖ Mirzo Ulug‘bek vorislari tanlovining 2-bosqichda ya’ni Buxoro viloyati bosqichidan muvoffaqiyatli o‘tib Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan.
- ❖ “iBook.us stipendiyasi” tanlovida faol ishtirokchisi
- ❖ “Registon stipendiyasi” tanlovi faol ishtirokchisi
- ❖ 2022-2023 o‘quv yilida uning qiziquvchanligi va bilimga chanqoqligi yanada ortdi. Chet tillarini mukammal egallash bilan birga “Google research”, “Google academia”, “Scopus.com” saytlar bilan erkin ishlay oladi va ilmiy maqolalarini hozirgi kunda ushbu saytlarga kirgan jurnallarda chop etish uchun taqdim qilgan.
- ❖ 2022-yil “Neft va gaz kimyosidan laboratoriya mashg‘ulotlari” o‘quv qo‘llanmasi ham muallifi
- ❖ 2022-yil “Yil talabasi” tanlovining “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi” nominatsiyasida faxrli 1-o‘rin sohibi
- ❖ 2023-yil Buxoro davlat universiteida o‘tkazilgan “Techno ways” tanlovi faol ishtirokchisi
- ❖ 2023-yil 12-iyun Buxoro davlat univeristetida o‘tkazilgan “Kimyo” fan olimpiadasi g‘olibi

Quyida Saidov Olimjon Amon o‘g‘lining ilmiy ishlaridan:

- ❖ “Очистка Сточных Вод Нефтеперерабатывающие Предприятия”, Tezis. “ilm fan va yondashuvlar , muammolar,takliflar va yechimlar” mavzusidagi 5-sonli respublika ilmiy-onlayn konfrensiyasi materiallar to‘plami 30-oktabr, 2020-yil.
- ❖ “Oxor xususiyatlariga dikraxmalfosfat tarkibining tasiri”, Tezis. “zamonaviy kimyoning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokidagi onlayn amaliy anjumani to‘plam buxoro 2020-yil 4-5-dekabr
- ❖ “Bioorganik kimyo , organik kimyo va fizkolloid kimyo” fanlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, Maqola.biologik kimyo fning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni respublika miqyosidagi ilmiy amaliy konfrensiyasi Buxoro 2022-yil 15-16-aprel.


❖ “Use of electronic textbooks in physical chemistry” Maqola. ta’lim va rivojlanish tahlili ilmiy jurnali 2022-yil 5-may

❖ “Neft va gaz kimyosi” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari”, O‘quv qo‘llanma, “Buxuro determinant” MCHJning kamolot nashriyoti 2022-yil.

Saidov Olimjon ilmiy faoliyatga shahdam qadamlar bilan kirib kelgan, yurtimizda ilmfanning ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz.



Ilmiy-amaliy jarayondan lavha: Saidov Olimjon Amon o‘g‘li Buxoro davlat universiteti professori Amonov Muxtor Raxmatovich bilan.



QOBULOVA GULZODA MAXSUD QIZI

Qobulova Gulzoda Xorazm viloyati Xonqa tumanida o‘qituvchilar oilasida tug‘ilgan. 1999-2009-yillarda Xorazm viloyati Xonqa tumani 13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qigan. 2009-2012-yillarda Xonqa yengil sanoat va kasb-hunar kollejini imtiyozli diplom bilan yakunlagan.

2012-2016-yillarda Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) yo‘nalishini tugatgan.

Qobulova Gulzoda Xorazm viloyati Xonqa tumani 13-son umumta’lim maktabida 2015-yil sentabrdan hozirgacha tarix fani oliy toifali o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2019-yil sentabrdan 2020-yil 18-yanvargacha O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Davlat Boshqaruv Akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni qayta tayyorlash institutini muvaffaqiyatli tamomlagan. 2021-2023-yillarda Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha) yo‘nalishida tahsil olmoqda.

2022-yil 21-sentabrdan 2023-yil 11-yanvargacha Prezident ta’lim muassasalari tizimdagi Xonqa tuman ixtisoslashgan maktabda tarix fani o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan.

Buxoro – 2020 yil 8 may. “Ta’lim sifatini oshirish: muammo, yechim va istiqbol” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtirok etgan. Toshkent - 2020 yil may. “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika 16-ko‘p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiyasi ishtirokchisi hisonlanadi. Bundan tashqari, Farg‘ona – 2020 yil 25-26-iyun. “Global axborot muhitida milliy, ma’naviy va diniy

qadriyatlar tizimini shakllantirish va reabilitatsiya qilishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika onlayn-ilmiy anjumanida ham o‘z faollifi bilan jaralib turgan.


Quyida Qobulova Gulzoda ishtirok etgan bir qatro anjuman va forumlar ro‘yxati keltirib o‘tilgan.

- ❖ Tashkent, Uzbekistan 20-June, 2020. “DIPLOMAT MUN 2” international conference participated
- ❖ Tashkent, Uzbekistan 14-July, 2020. “DIPLOMAT MUN 3” international conference participated
- ❖ 2021-yil 17-18-aprel KHiva, “AEGIS” Yoshlar Forumi ishtirokchisi
- ❖ “KHWARIZMI INTERNATIONAL SCHOOL OF OLYMPIADS” (KHISO) olimpiadalari ishtirokchisi
- ❖ “Yuksak ma’naviyatli avlod” festivali “Mustaqillik tarixi bilimdoni” nominatsiyasi sovrindori
- ❖ “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” respublika tanlovi tarix fanidan ishtirokchisi
- ❖ “Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish markazi” NNT tomonidan “Yoshlar oyli” doirasida o‘tkazilgan “Eng yaxshi psixologik maqola” tanlovi g‘olibi
- ❖ 2021-yil 20-oktabr, Toshkent. “Yangi O‘zbekiston saylovlari yoshlar nigohida” ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchisi
- ❖ 2021-yil 18-25 dekabr, Toshkent. “O‘zbekiston Yoshlar Forumi-2021” Yoshlar elchisi
- ❖ Oliygoth.uz platformasida tashkil etilgan “Registon stipendiyasi” respublika tanlovi ishtirokchisi
- ❖ “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovi ishtirokchisi
- ❖ 2022-yil 22-fevral, Toshkent, “ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI” respublika ko‘p tarmoqli sammiti ishtirokchisi
- ❖ UZBEKISTAN, TASHKENT – 22.06.2022, XALQARO ILMIY FORUM (INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM) participated
- ❖ CANADA, (23rd January 2023) “INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION” International scientific-online conference participated

- ❖ “EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE” January 2023, Tashkent. www.in-academy.uz
- ❖ “BEST SCIENTIFIC RESEARCH – 2023” INTERNATIONAL SCIENTIFIC COMPETITIONS DIPLOMA 2nd place In section “Historical sciences”, Indonesia 01.02.2023
- ❖ “XXI Международная научно-практическая конференция” г. Москва, Россия — 16.02.2023
- ❖ “XXVI Международный конкурс научно-исследовательских работ” Лауреат I ст. г. Москва, Россия. 2023
- ❖ “ХОРАЗМ - МАРКАЗИЙ ОСИЁ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ТИЗИМИДА” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман 2023 апрел. Урганч



O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat Boshqaruvi Akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti qayta tayyorlov kursining tantanali diplom topshirish marosimi. Suratda: Qobulova Gulzoda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sadullayev bilan.



ALISHEROVA DILSHODA AZIZXON QIZI

Alisherova Dilshoda Azizxon qizi 23-oktyabr 2003-yilda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. 2019-2021 yillar mobaynida Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi Is‘hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabini a‘lo baholarga tamomlagan. 2019-yil Janubi-Sharqiy Osiyo matematika olimpiadasi "SEAMO – South East Asia Olympiad" 2-o‘rin Kumush medalini qo‘lga kiritdi. 2021-2022 yil O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili uchinchi fakultetining “tashkiliy ishlar” yo‘nalishi yetakchisi. Yoshlar ishlar agentligi tomonidan tashkil etilgan “Ibrat camp - Xorijiy tillarga ixtisoslashgan Ibrat oromgohi” ishtirokchisi, 3ta mavsum koordinatori (1-mavsum "The best coordinator - Eng zo‘r koordinator" nominatsiya sohibasi). 2021-2022-2023 yillar . 2022-yil Amekadagi “Amazon” saytida "Talented voice of Uzbekistan", "Leader girls of world" va Turkiya va Ozarbayjon davlatlari bilan hamroqlikdagi "Turk antologiyasi" nomli kitoblarda maqolasi va biografiyasi nashr qilindi hamda 26tadan ortiq davlatga sotuvga chiqdi. 2021 yil sentyabr, oktyabr va noyabr oylarida “Prezident Saylov oldi forum”, “LetsStandUpHer”dagi Quizlarda O‘zDJTU universiteti nomidan qatnashdi. 2022 yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Investorlar tomonidan tashkil etilgan "Tashkent Investment Forum"da volontyor tarjimon bo‘lib faoliyat olib bordi.

2022-yil "INNOPROM Central Asia" va "Big Industrial Week" forumida tarjimon volontyor bo‘lib chet-ellik mehmonlarni yurtimiz bilan tanishtirdi. 2022-yil Yoshlar ishlar agentligi direktori Alisher Saydullayev tomonlaridan tashkil etilgan “Yosh Maslahatchilar kengashi Namangan viloyat vakili” bo‘lib saylandi va “Polimer” loyihasida spikerlik qildi.

2022-2023yillar "Xalqaro aloqalar, siyosat va huquq yo‘nalishi Qizlar ovozi Namangan viloyati koordinatori" bo‘lib faoliyat yuritdi. 2022-yil "Turizm oyligi" doirasida O‘zbekistonda ilk marotaba Turizm vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Xalqaro yoshlar turizm Qurultoyi”da Namangan delegatsiyasi sifatida ishtirok etdi. 2022-yil vodiylik yoshlar uchun O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikasi hamkorlikdagi tashkil etilgan "BOOST SAMP" nomli Farg‘onadagi biznes treningda ishtirokchisi bo‘lib qatnashdi.

2022-yil “UzbekVoiceCamp” O‘zbekistonda sun‘iy intellekt sohasini rivojlantirish uchun tashkil qilingan oromgohining ishtirokchisi.

2022-yil American Corner Namanganda trenerlik qilgan.

2022-2023 yillar "Yil talabasi" Respublika tanlovining universitet bosqichida 1-o‘rin sohibasi. 2023-yil "A sollection of articles - Maqolalar to‘plami” kitob muallifi, kitob 7ta tilda (Ingliz, Portugal, Italyan, Fransuz, Ispan, Nemis, Rus) tarjima qilindi, 8ta nashriyotda (GlobeEdit, Lambert – Academic Publishing, Verlag Unser Wissen, Edic Nuestro conoc Ones Mento, Editions Notre Savoir, Edizioni Sapienza, Edicoes Nosso Conhecimento) chiqdi, 50 tadan ortiq saytda (Misol uchun: Morebooks.shop Amazon.com Goodreads.com Barnesandnoble.com Morawa.at Bookline.hu saxo.com) sotuvga e‘lon berildi. 2023-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili uchinchi fakultetining lider qizi va Yoshlar ittifoqi yetakchisi. Ko‘plab ko‘rsatuvlar mehmoni (Foreign Languages Channel, MY5, O‘zbekiston tarixi, Mahalla, Sevimli TV va boshqa kanallar).

❖ 2023-yil "Qo‘sh Qanot" Qozog‘iston yozuvchilar uyushmasi O‘zbekiston respublikasi koordinatori.

❖ 2023-yil "Qo‘sh Qanot" Qozog‘iston yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil qilingan “Xalqaro xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni sohibasi.

❖ 2023-yil “IbratWiki” oromgohi tashkilotchisi.

❖ 2023-yil Qozog‘iston “Dunyo talantlari” uyushmasi a‘zosi.

❖ 2023-yil “Uzbekcha Viki oromgohi” koordinatori.

❖ 30 ga yaqin xalqaro tashkilotlar a‘zosi, koordinatori, maslahatchisi, tashkilotchisi va elchisi.

Alisherova Dilshoda 30 dan ortiq maqolalar egasi va maqolalari Amerika, Turkiya va 50dan ortiq davlatlarda gazeta va jurnallarda nashr ettirilgan, hamda sotuvga chiqqan. Respublika va vazirlik tomonidan tashkil etilgan loyihalar, olimpiadalarda, tadbirlar, tanlovlarda faol ishtirokchi, volonyor, tarjimon. 30dan ortiq shogirtlari bor va 2000dan ortiq yoshlarga spikerlik orqali bilim bermoqda. 2023-yil "Ibrat farzandlari" loyihasida 4 oylik amaliyotchisi.

Alisherova Dilshoda tirishqoqligi, turli loyihalardagi doimiy faol ishtiroki bilan tengdoshlariga namuna bo‘lib kelmoqda. Unga kelgusi faoliyatlarida ham muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.



Yoshlar ishlari agentli tomonidan tashkil etilgan "WikiStipendiya" loyihasining Wiki oromgohida koordinatorlik faoliyatidan lavha. Suratda eng faol ishtirokchilar taqdirlash marosimi.



RASHIDOVA DURDONA UMIDJON QIZI

Rashidova Durdona Umidjon qizi 2002-yil 2-mart kuni Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida tavallud topgan. Millati o‘zbek. 2017-yilda Bo‘ka tumanidagi 4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabini a‘lo baholar bilan tamomlagan.

2020-yilda Bo‘ka Agrosanoat va transport kasb-hunar kollejining “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishini imtiyozli (qizil) diplom bilan tamomlagan. 2020-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinib, hozirda mazkur universitetning Ingliz tili birinchi fakulteti 3-bosqichida tahsil olib kelmoqda. Qisqa vaqt ichida Durdona jamoat ishlariga mas‘uliyat bilan yondashishi, zehni, tirishqoqligi, mehnatsevarligi, ilmga chanqoqligi, tashabbuskorligi, namunali xulqi va faolligi bilan o‘zini namoyon etib kelmoqda. U iqtidorli talaba sifatida universitet talabalari orasida ajralib turadi. U badiiy janr bilan bir qatorda publitsistika, ilmiy va intellektual sohalarda ham faoliyat olib boradi.

Durdona Rashidova maktab davridanoq respublika bo‘ylab o‘tkazilgan barcha tadbirlar, musobaqa va ko‘rik tanlovlarda faol qatnashib, tengdoshlari orasida tanilishga ulgurgan. Xususan, 2016-yilda Bo‘ka tumani miqyosida o‘tkazilgan “Zakovat” intellektual o‘yinlarida faxrli 1-o‘rinni egallab, Kamolot YIH tomonidan diplom bilan taqdirlangan. 2016-yilda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘rtasida o‘tkazilgan “Munozara” debatlarida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgani uchun Kamolot YIH tomonidan 1-darajali diplom va medal bilan taqdirlanadi. 2020-yilda Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan “Insonning ma‘naviy va madaniy saviyasi uning qonunlarga og‘ishmay amal qilishida namoyon bo‘ladi” mavzusida o‘tkazilgan insholar tanlovida faol ishtirok etib 1-darajali diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. U nafaqat universitet va Respublika,

shuningdek, xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan tadbirlar, ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. U birinchi bosqichdanoq o‘z ilmiy faoliyatini boshlagan. Talaba universitetdagi o‘quv yillari mobaynida turli tanlovlar, ko‘plab konferensiya va forumlarda faol ishtirok etmoqda. Va u mutaxassisligining ikkinchi tili hisoblanmish nemis tilini ham chuqur o‘zlashtirmoqda. Uning rus va turk tillariga bo‘lgan qiziqishi va ularni mustaqil ravishda o‘rganayotgani uning kelajakdagi yutuqlariga mustahkam poydevor bo‘lishiga ishonamiz. Zero, til bilgan- el biladi. Bundan tashqari, uning kollejda buxgalteriya sohasida tahsil olib, bu sohani imtiyozli (qizil) diplom bilan tamomlagani ham tahsinga sazovordir.

2021-yil dekabr oyida Durdonaning “International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis” xalqaro jurnalida “Formation and Analysis of synonyms in English” nomli maqolasi chop etildi. Shundan so‘ng birin-ketin xalqaro jurnallarda uning ijodiy ishlari e‘lon qilina boshladi. 2022-yil fevral oyida esa “Oriental Journal of Philology” jurnalida “A Russian poet with an uzbek heart” nomli Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi haqidagi maqolasi chop etildi. 2022-yil Durdona Faynberg ijodining sirli jihatlariga yanada qiziqib, uning asarlarini yanada chuqurroq o‘rgana boshladi va “Innovative developments and research in education” nomli Xalqaro ilmiy onlayn Kanada konferensiyasida “Distinctive aspects and features of Feinberg`s works” nomli maqolasi bilan qatnashib Xalqaro darajadagi sertifikat bilan taqdirlandi.

- ❖ 2022-yil mart oyida Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan “Innovative development of modern science: theory, methodology, practice” nomli konferensiyada “The importance of the works of Alexander Feinberg in Uzbek literature” nomli maqolasi bilan qatnashdi va Qo‘shma Shtatlarning Xalqaro sertifikatiga ega bo‘ldi.
- ❖ 2022-yil may oyida “Ilm-fan va ta‘limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 24-sonli Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy-onlayn konferensiyada “Innovative technologies in education” nomli maqolasi bilan faol ishtirok etib, sertifikat bilan mukofotlandi.

- ❖ Durdona Rashidova Argentinaning “Juntos por las Letras” Xalqaro Yozuvchilar Uyushmasi, Hindistonning yer yuzida tinchlik, adolat, umuminsoniy bag‘rikenglik va tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan IQRA nomli Xalqaro Fondi, Indoneziya Xalqaro Yozuvchilar Uyushmasi kabi bir qator xalqaro tashkilotlarning faol a‘zosi hisoblanadi.
- ❖ 2022-yil iyun oyida Best Publication ilmiy-tadqiqotlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash markazi tomonidan tashkil etilgan xalqaro tanlovida o‘z ilmiy ishi bilan ishtirok etgan Durdona Rashidova “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik ko‘krak nishoni, hamda avtobiografik jurnal bilan taqdirlandi. Taqdirlash marosimi respublikaning barcha ommaviy axborot vositalarida yoritildi. Ushbu tanlovda o‘zining ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan munosiblar qatorida e’tirof etilgan 458 nafar vatanimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishga hissa qo‘shayotgan, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yoshlar qatoriga kiritilgani uning o‘zi va ota-onasini behad mamnun etdi.
- ❖ Durdona 2022-yil dekabr oyida Stars Xalqaro Universiteti tomonidan tashkil etilgan Talabalar va Yosh olimlar uchun “Ilm-fanning innovatsion rivojlanishida zamonaviy tendensiyalar & Global dunyoda ta’lim” mavzusidagi xalqaro konferensiyada o‘z universiteti faol ishtirok etdi.

Bundan ilhomlangan Durdona shu yil yakunida yana bir nufuzli tanlovda ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. 2022-yilda MDH mamlakatlari miqyosida o‘tkazilgan "Лучший студент СНГ - 2022" tanlovida qatnashib faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va esdalik ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi. Ushbu tanlovga vatanimizning eng sara yoshlarining ijod namunalari saralab olinib, MDH mamlakatlari talabalarining loyihalari bilan o‘zaro bellashish uchun yuborildi. Tanlovning taqdirlash marosimi Qozog‘istonning Nur-Sulton shahrida bo‘lib o‘tdi. Durdonaning 2022-yildagi yana bir yutuqlaridan biri uning Xalqaro antologiyada o‘z ijodiy ishi bilan qatnashgani bo‘ldi. “Rising flowers of Uzbekistan” nomli O‘zbekistonlik 30 ga yaqin qizlarning ijodiy ishlari jamlangan Xalqaro Antologiya Amerika Qo‘shma Shtatlarining Amazon nashriyotida chop etilib, dunyoning 26 ta davlatida sotuvga

chiqarildi. Ushbu antologiyadan qahramonimizning ham ilmiy maqolasi o‘rin olgan. 2023-yilda ham Durdona o‘z qizg‘in faoliyatida bir qator muvaffaqiyatlarga erishishga ulgurdi. U universitetdagi barcha tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, “Vatan mehri yuragimda” ko‘rik tanlovining universitet bosqichida qatnashib 1-o‘rinni egalladi. Talaba qizlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida tashkil etilgan “Balli qizlar” tanlovida faol qatnashib “Fakultet malikasi” deb topildi va diplom va esdalik sovg‘alari bilan mukofotlandi.


Joriy yilning may oyida Hindiston mustaqilligining 75 yilligiga bag‘ishlab Hindistonning SEBI va BSE IPF kabi bir qator nufuzli tashkilotlari tomonidan “Moliyaviy mustaqillik” onlayn kurslari tashkil etilib, iqtidorli talabalarga bu yo‘nalishda ta’lim berildi va kurs so‘nggida Durdona sertifikatini qo‘lga kiritdi.

Bundan tashqari u Xalqaro Texnologiya Kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan onlayn olimpiadada faol ishtirok etib sertifikat bilan taqdirlandi.

Durdonaning kelgusida Vatanimiz ravnaqi yo‘lida bor bilim va mahoratini ishga solgan holda o‘zining yangidan yangi ilmiy ishlari bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lishiga ishonamiz.



Stars Xalqaro Universiteti tomonidan tashkil etilgan “Ilm-fanning innovatsion rivojlanishida zamonaviy tendensiyalar & Global dunyoda ta’lim” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ishtirokidan lavha.



ERGASHEV IZZATILLO AHROR O‘G‘LI

Ergashev Izatillo Axrorjon o‘g‘li 2004-yil 11-aprelda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan.

2022-yil senabr oyida Farmatsevtika ta‘lim va tadqiqot

instituti Sanoat farmatsiyasi fakultetiga o‘qishga qabul qilingan.

Uning ilimga chanqoqligi, intiluvchanligi, har bir ishga mas‘uliyat bilan yondashuvchanligi, ma‘naviy va marifiy tadbirlarda tashkilotchiligi, faolligi institutdagi boshqa talabalardan doimo ajralib turishga sabab bo‘lgan. Institutdan bo‘sh vaqtlarida chet tillarini o‘rganish va sport bilan shug‘ullanadi. Hozirgi kunda o‘zining ilmiy ishlari ustida izlanishlar olib bormoqda. OSIYO FARM SANOAT ishlab chiqarish korxonasining Farmatsevt texnologii.

UNITED NATIONS UZBEKISTAN BMT ning 30 yilligiga bag‘ishlanib tashkil qilingan “Ijodkor Yoshlar” tanlovida faol ishtirok etganligi uchun Xalqaro Sertifikatni qo‘lga kiritgan. Farmatsevtika ta‘lim va tadqiqot institutida 2022-yil 21-oktabr tashkil etilgan insholar tanlovida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan. YAIT Biznes Inkubatorida o‘zining loyihasi bilan ishtirok etib 3 oylik amaliyotni muvofaqiyatli yakunlab sertifikat va statuetkani qo‘lga kiritgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshida tashkil etilgan C.A.T. Science Accelerator 4.0 dasturida qatnashib, respublika final bosqichi ishtirokchisiga aylandi. Bundan tashqari “HEMO DENT” stomatologik qon to‘xtatuvchi gel ishlab chiqarish loyihasi bilan Respublika bosqichida ishtirok etgan.

10 dan ortiq xalqaro va mahalliy konferensiyalarda ishtirok etib sertifikat va diplomlar bilan taqdirlangan:

❖ “Development Youth Forum” ishtirokchisi

- ❖ “Ability Youth Forum 2” ishtirokchisi
- ❖ “Leader Academy Forum” ishtirokchisi
- ❖ Zamon Youth Forum “The Best Delegate” konferensiyasi ishtirokchisi
- ❖ “Sustainable Development Goal Model United Nations Online Conference 2” konferensiyasi ishtirokchisi
- ❖ “Global Leaders Conference” ishtirokchisi
- ❖ “Global Education Conference” konferensiyasi ishtirokchisi
- ❖ “Leader Academy Youth Forum” ishtirokchisi.
- ❖ “Young Businessmen and economists forum” ishtirokchisi.
- ❖ “Global Leaders Week” konferensiyasi ishtirokchisi.
- ❖ “Global Youth Fotum 3 season” ishtirokchisi.
- ❖ ”Flight Youth Forum” konferensiyasida ishtirokchisi.



Ergashev Izatillo O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshida tashkil etilgan C.A.T. Science Accelerator 4.0 dasturining Respublika final bosqichi ishtirokidan lavha.



ESANOVA LUTFIYA SHERMAMAT QIZI

Esanova Lutfiya Shermamat qizi 2000-yilda Surxondaryo viloyati Termiz shahrida tavallud topgan.

Boshlang‘ich va o‘rta ta‘limni 2006-2015-yillar davomida Termiz shahridagi 8-sonli maktabda olgan. Barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qib, maktabni Imtiyozli shahodatnoma bilan tamomlagan.

2016-2018-yillarda Termiz davlat universiteti qoshidagi 2-son Akademik litseyi Xorijiy filologiya yo‘nalishida tahsil olgan.

Esanova Lutfiya 2018-yilda Termiz davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishiga davlat granti asosida qabul qilingan. Universitetda o‘qish davomida o‘z ustida muntazam ravishda ishlagan, xorijiy tillarni puxta o‘rgangan va bakalavriat bosqichini a‘lo baholar bilan yakunlagan.

2022-yildan Termiz shahar 8-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi hisoblanadi.

Esanova Lutfiya o‘z zimmasiga yuklangan har bir ishga mas‘uliyat bilan qaraydigan hamda tengdoshlarining va hamkasblarining alohida hurmatiga sazovor bo‘la olgan mutaxassis hisoblanadi. Universitetda o‘qish jarayonida o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan boshqa talabalarga o‘rnak bo‘lgan. Esanova Lutfiya o‘zining o‘quv va kasbiy faoliyati mobaynida turli xil tadbirlarda, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan konferensiya, forum va ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, bir qancha sovrinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Jumladan,

- ❖ 2020-2022-yillar davomida tashkil etilgan bir qator ilmiy-ijodiy tadbirlar, jumladan, “Creative Leader Students”, “International Girls Summit”, “Maqsad sari ilk”, “Business in Tourism: how to make money and benefits of developing tourism”, “Despierta”, “Dream Forum”, “Leader Youth Global Forum”, “Modern Youth Conference” xalqaro yoshlar forumlarida faol ishtirok etgan hamda sertifikat va diplomlar bilan taqdirlangan.
- ❖ 2020-yil avgust-sentabr oylarida tashkil etilgan “So‘zla” ilk o‘zbek tildagi notiqlik san’ati tanlovining 1-bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.
- ❖ 2021-yil yanvar oyida o‘tkazilgan “Hikmatlar oshyoni” intellektual tanlovida 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan
- ❖ 2021-yil 5-iyul sanasida O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va Respublika yosh ijodkorlari Kengashi tomonidan Surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan “DUEL” Respublika ijodiy tanlovining Badiiy tarjima yo‘nalishi bo‘yicha viloyat bosqichi g‘olibi bo‘lib, 2-darajali Diplom bilan taqdirlangan.
- ❖ 2021-2022-o‘quv yilida Termiz davlat universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tomonidan tashkil etilgan “Eng yaxshi ijodkor” ko‘rik tanlovida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan.
- ❖ 2022-yil mart oyida tashkil etilgan “Vatan taraqqiyotida zamonaviy ayollar” mavzusidagi ilmiy onlayn konferensiyasida faol ishtirok etgan.
- ❖ Respublika miqyosida tashkil etilgan bir qator tanlovlarda, xususan, 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar” kuniga bag‘ishlab tashkil etilgan Shashka turnirlari va kitobxon yoshlar uchun tashkil etilgan “Hikmatlar oshyoni” intellektual tanlovida 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan, iste’dodli yoshlar uchun ta’sis etilgan “Registon” stipendiyalari saralash bosqichlarida g‘oliblar safidan joy olgan.
- ❖ 2022-yil 5-12-avgust kunlari O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ingliz tiliga ixtisoslashgan «Ibrat tillar oromgohi» ning 4-mavsumida

munosib ishtirok etdi va o‘zining yuksak mahorati va chuqur bilimini namoyon etganligi uchun Sertifikat bilan taqdirlangan.

Shu bilan bir qatorda, hozirda Esanova Lutfiya o‘zining xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullari mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini faol davom ettirib kelmoqda. Uning shu paytgacha e‘lon qilingan ilmiy ishlari quyidagilar:

- ❖ *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuv masalalari.* Ilmiy tezis. “Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi” xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2020-yil avgust.
- ❖ *The peculiarities of teaching professional English vocabulary to the students of Law Universities (based on the lexemes «Right» and «Law»).* Ilmiy maqola. “Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture” xalqaro ilmiy jurnali (Impact factor 8.2), 2022-yil.

Esanova Lutfiya hozirda o‘zining ilmiy-kasbiy faoliyati bilan birgalikda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirib kelmoqda. Xususan, chet tillarini baholash milliy tizimining 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan multilevel imtihonlarida o‘z bilimini sinab ko‘rib, CEFR C1 darajasini qo‘lga kiritgan.

Esanova Lutfiya Shermamat qizi kelajakda o‘z sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishni va Respublikamizning rivojiga munosib hissa qo‘shishni, yosh avlodni ilmiy va yuksak salohiyatli qilishni o‘zining oliy maqsadlaridan biri deb hisoblaydi. Bu maqsadlarga yetishda Lutfiyaga omad va muvaffaqiyatlar hamroh bo‘lishiga tilakdoshmiz.



O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va Respublika yosh ijodkorlari Kengashi tomonidan Surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan “DUEL” Respublika ijodiy tanlovining Badiiy tarjima yo‘nalishi bo‘yicha viloyat bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimidan lavhalar



XURRAMOVA LOBARXON AKRAMJONOVNA

Xurramova Lobarxon Akramjonovna 1998-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tavallud topgan.

Boshlang‘ich va o‘rta ta‘limni 2005-2014-yillar davomida Denov tumanidagi 36-sonli maktabda olgan. Barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qib, maktabni Imtiyozli shahodatnoma bilan tamomlagan.

2015-2017-yillarda Denov tumani Kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kollejida tahsil olgan.

Xurramova Lobarxon 2018-yilda Termiz davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishiga davlat granti asosida qabul qilingan. Universitetda o‘qish davomida o‘z ustida muntazam ravishda ishlagan, xorijiy tillarni puxta o‘rgangan va bakalavriat bosqichini a‘lo baholar bilan yakunlagan.

2022-yildan Toshkent davlat pedagogika universitetining 70110501-Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi magistranti hisoblanadi.

Xurramova Lobarxon o‘z zimmasiga yuklangan har bir ishga mas‘uliyat bilan qaraydigan hamda tengdoshlarining alohida hurmatiga sazovor bo‘la olgan talaba hisoblanadi. Universitetda o‘qish jarayonida o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan boshqa talabalarga o‘rnak hisoblanadi. Xurramova Lobarxon o‘zining faoliyati mobaynida turli xil tadbirlarda, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan konferensiya, forum va ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, bir qancha sovrinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Jumladan,

- ❖ 2020-yil sentabr-dekabr oylarida tashkil etilgan 3 oylik “YAIT Biznes Inkubator” loyihasi 2-mavsumida ishtirok etib, dastur so‘nggida bo‘lib o‘tgan “Demo-Day”

tadbiri doirasida jamoasi bilan o‘zining “OnTech” innovatsion loyihasi yakunda faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan.

- ❖ 2023-yil 13-yanvar sanasida O‘zbekiston Milliy Universitetida bo‘lib o‘tgan “Xalqaro ilmiy forum” nomli ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy konferensiyada o‘zining ilmiy maqolasi bilan ishtirok etdi va Ilg‘or tadqiqotlar ilmiy markazining 03-sonli buyrug‘iga asosan “Ilm-fan iftixori” esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.
- ❖ 2023-yil 30-yanvar sanasida o‘tkazilgan “Kitobxon yoshlar” onlayn tanlovida faol ishtirok etgan va Tashakkurnoma bilan taqdirlangan. Hozirda ham Respublika miqyosida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etib kelinayotgan “Zukko kitobxon” faol ishtirok etib kelmoqda.
- ❖ 2023-yil 27-fevral sanasidan 5-aprel kuniga qadar respublikamizning barcha tuman va shaharlarida bo‘lib o‘tgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovining 1-bosqichida Denov tumani bosqichida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyat bosqichida ham faol ishtirok etgan.
- ❖ Respublika miqyosida tashkil etilgan bir qator tanlovlarda, xususan, 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar” kuniga bag‘ishlab tashkil etilgan Zakovat turnirida faol ishtirok etgan, kitobxon yoshlar uchun tashil etilgan “Tirilish” tanlovida g‘oliblar safidan joy olgan, iste’dodli yoshlar uchun ta’sis etilgan “iBook.uz” va “Registon” stipendiyalariga hujjatlarini topshirgan.

Xurramova Lobarxon ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, yoshlarni ilimli va yuksak salohiyatli qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan “Birgalikda Yuksalamiz” loyihasining dekabr-fevral oylaridagi 5-mavsumida faol ishtirok etib, bir qator ijtimoiy loyihalarni amalga oshirgan.

Shu bilan bir qatorda, hozirda Xurramova Lobarxon o‘zining “Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini ingliz tili bilan integratsiyalash” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faol davom ettirib kelmoqda. Uning shu paytgacha e‘lon qilingan ilmiy ishlari quyidagilar:

- ❖ *Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari “sinf ichida sinf” shaklida.* Ilmiy tezis. “Umumiy o‘rta-ta’lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta’lim muhiti” xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2020 yil avgust.
- ❖ *The place of Primary Education in the PEARLS International Assessment System.* Ilmiy maqola. “Xalq ta’limi sohasi boshqaruv tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2022-yil 17-dekabr.
- ❖ *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili va ingliz tillarini integratsion metodlar asosida o‘qitishning didaktik afzalliklari.* Ilmiy maqola. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023-yil 2-iyun


Xurramova Lobarxon ilmiy faoliyat bilan birgalikda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirib kelmoqda. Jumladan, chet tillarini baholash milliy tizimining 2022-yilgi multilevel imtihonlarida o‘z bilimini sinab ko‘rib, 2 karra CEFR B2 darajasini qo‘lga kiritgan.

Xurramova Lobarxon Akramjonovna kelajakda o‘z sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishni va Respublikamizning rivojiga munosib hissa qo‘shishni, yosh avlodni ilmiy va yuksak salohiyatli qilishni o‘zining oliy maqsadlaridan biri deb hisoblaydi.



"Mirzo Ulug‘bek vorislari" ko‘rik tanlovining Denov tumani bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan Xurramova Lobarxonni tantanali taqdirlash marosimidan lavha.

(2023.03.23)



UMARQULOVA DIYORA SANJAR QIZI

Umarqulova Diyora Sanjar qizi 2004-yil 23-iyun kuni Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahrida tug‘ilgan.

Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahar 22-sonli musiqa va san’at maktabining "fortepiano" yo‘nalishini bitirgan, dizayn va rassomchilik yo‘nalishida o‘qigan. Bundan tashqari , maktab va litseyda "Bilimlar bellashuvi" va olimpiadalarda matematika, geografiya va o‘zbek tili fanlaridan qatnashib , faxrli o‘rinlarni egallagan.

❖ Yutuqlari:

- ❖ 2016-yil- "Bilimlar bellashuvi" o‘zbek tili fani tuman bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan.
- ❖ 2017- yil- "Bilimlar bellashuvi" o‘zbek tili fani tuman bosqichida 1-o‘rinni egallagan.
- ❖ 2018-yil- "Bilimlar bellashuvi" o'zbek tili fani tuman va viloyat bosqichlarida faxrli 1-o'rin ; shu yili "Bilimlar bellashuvi " va olimpiadalarda viloyat bosqichida faxrli 1-o'rinni egallaganlar uchun "Quyoshli" bolalar oromgohiga bepul yo'llanma berilgan
- ❖ 2019-yil - "Bilimlar bellashuvi" o'zbek tili fani tuman bosqichida 1-o‘rin, viloyat bosqichida sovrinli 5-o‘rin(O'zDJTU akademik litseyiga imtihonsiz qabul-sertifikat)
- ❖ 2021-yil- O‘zDJTU akademik litseyini a’lo baholar bilan bitirgan
- ❖ 2021-yil - IELTS (6.0 Band Score), CEFR (B2)
- ❖ 2021-yil- Toshkent shahridagi A. I. Gersen nomidagi Rossiya Davlat pedagogika universiteti filialiga byudjet asosida qabul
- ❖ 2021-yil- O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga byudjet asosida qabul

- ❖ 2022-yil- Yoshlar ishlar agentligi tomonidan yoshlar uchun chet tillarini o‘rganishga va rivojlantirishga qaratilgan "Ibrat" tillar oromgohining 2022-yil 5-mavsum ishtirokchisi
- ❖ 2022-yil- "O‘zbekiston yoshlari buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi" mavzusida o‘tkazilgan "Eng yaxshi infografika" nominatsiyasi universitet bosqichida 1-o‘rin
- ❖ 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o‘quvchilarning ma’naviy yuksalishiga ko‘maklashish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Respublika Yosh olimlar Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz hamkorligida 2023-yil 20-aprel kuni o‘tkaziladigan “SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi .

Quyida Umarqulova Diyoraning ilmiy ishlaridan bir nechtasining ro‘yxati keltirib o‘tilgan:

1. 07.04.2022- Умаркулова, Д.С. Целеполагание / Д.С. Умаркулова. — Текст : электронный // NovaInfo, 2022. — № 131. — С. 125-127. — URL: <https://novainfo.ru/article/19073> (дата обращения: 30.03.2023).
2. 09.04.2022- Умаркулова, Д.С. Тайм-менеджмент для студентов / Д.С. Умаркулова. — Текст : электронный // NovaInfo, 2022. — № 131. — С. 115-117. — URL: <https://novainfo.ru/article/19078> (дата обращения: 30.03.2023).
3. 26.06.2022- Умаркулова, Д.С. Важность словарного запаса и методы его расширения / Д.С. Умаркулова. — Текст : электронный // NovaInfo, 2022. — № 133. — С. 47-48. — URL: <https://novainfo.ru/article/19307> (дата обращения: 30.03.2023).

4. 06.07.2022- Умаркулова, Д.С. Онлайн-ресурсы при изучении английского языка / Д.С. Умаркулова. — Текст : электронный // NovaInfo, 2022. — № 133. — С. 55-56. — URL: <https://novainfo.ru/article/19323> (дата обращения: 30.03.2023).
5. Август, 2022- Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»- Наименование материала: «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДАВАЕМЫХ НАВЫКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ»-данный материал получил положительную экспертную оценку и принят к публикации в номер «29» 2022 года международного научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». ISSN: 2782-4365. Территория распространения: Российская Федерация, зарубежные страны
6. Umarkulova Diyora. (2022). WHAT DIFFICULTIES ARISE WHEN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE?. World Bulletin of Social Sciences, 14, 25-27. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1401>
7. 2022-yil 5-oktabr kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan "Innovatsiya 2022 : Dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman- METHODS OF TEACHING ENGLISH USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES
DOI: 10.36078/1665482543
8. Umarkulova Diyora Sanjar qizi. (2023). JACK LONDON IN SEARCH OF THE IDEAL: THE CULT NOVEL "MARTIN EDEN ". European Scholar Journal, 4(3), 14-17. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3272>



ABDUTOLIBOVA BARCHINOY G‘OFUROVNA

Abdutolibova Barchinoy G‘ofurovna, 2005-yil 16-avgustda Toshkent shahrida tavallud topgan. Xorijiy tillarni tez va samarali o‘rganishga qobiliyati bor (ona tiltdan tashqari rus (akademik darajada), ingliz (IELTS 7, C1), koreys (boshlang‘ich). Huquqiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi voqeliklarni kuzatish, tahlil qilish va sharhlashga qodir. Turli janrlarda tasviriy san‘at asarlarini yaratadi. 2017-yil – “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining Toshkent shahar bosqichida tasviriy san‘at yo‘nalishida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan. 2018-yil – “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichida tasviriy san‘at yo‘nalishida 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. 2019-yil – Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Qizlarjon” o‘quvchi-qizlar sammitida “Innovatsiyon g‘oyalar muallifi” yo‘nalishi ishtirokchisi sanaladi. 2019-yil – INHA universiteti tashabbusi bilan tashkil etilgan “Hour of Code” dasturlash kursidagi muvaffaqiyatli ishtirok uchun sertifikat bilan taqdirlangan. 2021-yil – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyida tarix fani bo‘yicha o‘tkazilgan «Время знаний» tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan. 2022-yil – International English Language Testing System (IELTS) 7 (C1) sertifikatini qo‘lga kiritgan. 2022-yil – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “UWED Debate Club” debatlarining yarim finalisti sanaladi. 2022-yil – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Yuridik klinikaning «Судопроизводство Древнего Рима» nomli Rim huquqiga asoslangan sud jarayoni simulyatsiyasi ishtirokchisi sanaladi. 2023-yil – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi “TSUL Court” sud jarayoni simulyatsiyalari ishtirokchisi hisoblanadi. 2023-yil – Koreya Respublikasi elchixonasi qoshidagi Koreys madaniyat markazining koreys tili kursini tamomladi va sertifikat bilan taqdirlandi. 2023-yil – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga


qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha o‘tkazilgan referendumda tarjimon-volontyor sifatida faoliyat olib borgan.

Bundan tashqari, Abdutolibova Barchinoy bir qator ilmiy ishlar muallifi hamdir, quyida uning ilmiy ishlari ro‘yxati:

- ❖ 2023-yil yanvar, “Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi” jurnalida (Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi jurnal) “Защита прав ребенка в дошкольной образовательной среде: опыт и перспективы” mavzusida ilmiy maqola nashr etilgan. ISSN: 21-81-9386, 2023/1/43
- ❖ 2023-yil iyun, World Bulletin of Management and Law (WBML) xalqaro jurnalda (Germaniya) “Legal culture as a key factor in ensuring the rule of law in the state” mavzusida ilmiy maqola nashr etilgan. ISSN: 2749-3601, Volum-23



Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universitetida o‘tkazilgan “Debate club”,
Parlamentar debatlar simulyatsiyasining yarim final bosqichidagi jamoaviy ishtirokidan
lavha.



YAXYOPO‘LATOVA RAYXONA BOTIRJON QIZI

Yaxyopo‘latova Rayxona Botirjon qizi 2003-yil 17- iyun sanasida Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida tavallud topgan. 2009-2019-yillarda

Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida joylashgan 2-

sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida tahsil olgan. Ta’lim olish mobaynida namunali xulqi, barcha fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirgani sabab maktabni oltin medal bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Maktabda o‘qish mobaynida ham turli tadbirlar, bilimlar bellashuvlari, fan olimpiadalar, ko‘plab tanlovlardagi faol ishtiroki bilan tengdoshlariga namuna bo‘lgan. Maktab davridanoq ilm-fanga mehri o‘zgacha bo‘lgan.

2021 yil O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga davlat granti asosida talablika tavsiya etilgan. Rayxona o‘z zimmasiga yuklangan har bir ishga mas’uliyat bilan qaraydigan hamda tengdoshlarining alohida hurmatiga sazovor bo‘la olgan talaba hisoblanadi. Universitetda o‘qish jarayonida o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan boshqa talabalarga o‘rnak hisoblanadi. Yaxyopo‘latova Rayxona o‘zining faoliyati mobaynida turli xil tadbirlarda, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan konferensiya, forum va ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, bir qancha sovrinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Jumladan, 2022 yil Yoshlar ishlari agentligi tomonidan iqtidorli yoshlar uchun tashkil etilgan "Ibrat Camp" chet tillari oromgohining 3-mavsumiga 2 bosqichli saralash imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, 12-17-iyun kunlari Bo'stonliq tumanida joylashgan "Yoshlar oromgohida" faol ishtirok etdi. Turli seminarlar, maxsus treninglarda qatnashib bilim va ko‘nikmalarini oshirdi. Mavsum so‘ngida Yoshlar ishlari

agentligi direktori Alisher Sadullayev tomonidan Sertifikat hamda maxsus sovg‘a bilan taqdirlandi.

“General description of english phonetics” nomli ilmiy ishi “International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century” 2022/9 nomli konferensiya to‘plamida chop etilgan.


Bundan tashqari bir qator kurslarda ham tahsil olgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi Shohida Yusupovaning “muvaqqafiyatga erishish yo‘llari”, “Moliyaviy savodxonlik” kurslaridagi ishtiroki shular jumlasidan.

Universitetda ham barcha fanlarni a’loqa o’zlashtirib, namunali xulqi, salohiyati, faolligi bilan tengdoshlariga namuna bo‘lib kelmoqda.

Rayxona Yaxyopo‘latovaga ilm-fan sohasida yuksak cho‘qqilarni zabt etishida tilakdoshmiz.



Bo‘stonliq tumanida joylashgan "Ibrat Camp" chet tillar oromgohining
3-mavsumidagi faol ishtirokidan lavha.



BAXROMOVA SHOHSANAM IBADULLAYEVNA

Baxromova Shohsanam Ibadullayevna 1994-yil 5-may kuni Surxandaryo viloyati Denov tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. Baxromova Shohsanam, Boshlang‘ich maktabni Denov tumanida 30-maktabda o‘qidi. 2009-yilda maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. Baxromova Shohsanam 2009-2012-yillarda Toshkent yuridik kollejiga “Ma’muriy huquqiy faoliyat” yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi va u yerda ham yaxshi baholarga o‘qishni tamomladi.

Baxromova Shohsanam 2012-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga (avvalgi nomi) “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” yo‘nalishiga olgan bilimlari, izlanuvchanligi va tirishqoqligi bilan o‘qishga qabul qilindi. Universitetni 2016-yilda a’lo baholar bilan tamomladi.

Baxromova Shohsanam 2016-2018-yilgacha Surxandaryo viloyati Denov tumanidagi Uy-joy qurilish va transport kollejida informatika fanidan dars berib keldi.

2018-yildan boshlab Termiz davlat universiteti Denov filiali Devonxona bo‘limiga ishga qabul qilindi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga (Termiz davlat universiteti Denov filiali avvalgi nomi) Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, muhandis lavozimiga ishga qabul qilindi.

Baxromova Shohsanam 2022-yil Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, M.Sc. MPRI 1-U Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-kurs magistraturasiga qabul qilindi. U boshqa talabalardan o‘zining jonkuyarligi, vijdoniyligi va harakatchanligi bilan ajralib turadi. Quyida uning bir qator yutuqlaridan namunalar keltirilgan:

- ❖ 2020-yil may oyida JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal da “The terms of postmodern characteristics in daniel martin novel of john fowles” nomli maqolasi nashrdan chiqdi va sertifikat bilan taqdirlandi.
- ❖ 2021-yil 17-mart kuni Milliy va ilmiy tariximizni ulug‘lash-istiqbolli va umidli kadrlar tayyorlashning asosiy omili” Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi ishtirokchisi.
- ❖ “Surxondaryo viloyati Denov tumani kesimida turizm sohasini rivojlantirishdagi tarixiy qadamjolarining o‘rni” nomli maqolasi bilan faol ishtiroki uchun Sertifikat bilan taqdirlandi.
- ❖ 2021-yil 21-aprelda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tashkil etilganligi munosabati bilan o‘tkazilgan “Eng fidoiy xodim” nominatsiyasi g‘olibi sifatida Faxriy yorliq bilan taqdirlandi.
- ❖ 2023-yil 12-mart kuni "RESEARCH AND PUBLICATIONS" ilmiy nashrlar markazi huzuridagi Ilmiy kengashning 2022-yil, 26-noyabr oyidagi 6-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchisi.
- ❖ “Boshlang‘ich ta’limda o‘yin va mobil texnologiyalaridan foydalanish” nomli maqolasi bilan ishtirok etgan holda “ILM-FAN TASHABBUSKORI” esdalik nishoni bilan taqdirlandi.
- ❖ 2023-yil 24-may kuni bo‘lib o‘tgan "Tashkent City Congress Hall"da O‘zbekiston-Singapur biznes forumi ishtirokchisi.



2023-yil 24-may kuni bo'lib o'tgan "Tashkent City Congress Hall"da O'zbekiston-Singapur



JO‘RAYEV JAMSHID BAXODIR O‘G‘LI

Jo‘rayev Jamshid Baxodir o‘g‘li 1996-yil 11-may sanasida Namangan viloyati Uychi tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. 2003-2012-yillar davomida Namangan viloyati Uychi tumanidagi 8-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tahsil olgan. Maktab davridan yosh

Jamshid Jo‘rayev ilmga mehr qo‘ygan, bilimlar sinovi va fan olimpidalariga muntazam faol qatnashgan. Jumladan, Fan olimpiadasining tuman bosqichida matematika fani bo‘yicha 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Sportning Kurash turi bo‘yicha tuman bosqichida 3-o‘rin va Yengil atletikaning 100 metrga yugurishda faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Barcha fanlardan birday a‘lo baholar bilan muvaffaqiyatli tamomlagan.

2012-2015-yillarda Namangan davlat universiteti qoshidagi 2-son Akademik litseyi Texnika yo‘nalishida tahsil olgan. Akademik litseyda o‘qish mobaynida oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rish bilan birgalikda turli fan olimpiadalari va ko‘rik tanlovlarda ham faol qatnashgan. Barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirgan.

2017-2021-yilda Namangan muhandislik texnologiyasi instituti Energetika (tarmoqlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishiga davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan. Jamshid Jo‘rayev bakalavriat bosqichida ham o‘z ustida ishlashda davom etgan, fanlarni puxta o‘rgandi, o‘zining ilmiy faoliyatga bo‘lgan dastlabki qadamlarini tashlagan.

2023-yilda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika unversiteti Muqobil energiya manbalari (turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishiga davlat granti asosida qabul qilingan. Hozirda 1-bosqich magistranti hisoblanadi.

Jo‘rayev Jamshid o‘z zimmasiga yuklangan har bir ishga mas‘uliyat bilan qaraydigan mutaxassis hisoblanib, o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan tengdoshlari va hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Jo‘rayev

Jamshid o‘zining o‘quv va kasbiy faoliyati mobaynida ko‘plab tadbirlarda, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan konferensiya, forum va ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib, bir qancha sovrinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Jo‘rayev Jamshid 2017-2023-yillar davomida:

Respublika miqyosida o‘tkazilgan turli ilmiy-ijodiy tadbirlar, xususan,

- ❖ “Xalqaro yoshlar sammiti”,
- ❖ “Xalqaro Sport sammiti”,
- ❖ “Diplomat MUN” (Model United Nations),
- ❖ “Yosh liderlar”,
- ❖ “Young Businessmen and Economists Forum” kabi yoshlar forumi va konferensiyalarining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, hozirda Jo‘rayev Jamshid o‘zining ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy ishlarini faol davom ettirib kelmoqda. Uning shu paytgacha ilmiy maqola va tezislari respublika va xalqaro jurnal va konferensiyalarda e‘lon qilingan. Jumladan, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida “2023 yil – “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”ga bag‘ishlangan «Hozirgi zamon falsafasining dolzarb masalalari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi “Hozirgi zamon falsafasining dolzarb masalalari”(2023); nomli ilmiy ishi bilan faol ishtirok etdi. Bundan tashqari Jamshid Jo‘rayevning Ismandiyarov A. bilan hammualliflikda “Issiq suv bilan ta‘minlashda quyosh energiyasidan foydalanish” nomli ilmiy ishi ham chop etilgan.

Jo‘rayev Jamshid Baxodir o‘g‘li kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassis bo‘lib, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishni, insonlarning hayotini yanada yaxshilashda o‘z bilim va tajribalari bilan yaqindan yordam berishni, va eng asosiysi ilmiy va yuksak salohiyatli avlodlarni voyaga yetkazishni o‘zining oliy maqsadlaridan biri deb hisoblaydi.



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida “2023 yil – “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”ga bag‘ishlangan «Hozirgi zamon falsafasining dolzarb masalalari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasidagi Jamshid Jo‘rayevning ishtirokidan lavha.



ABDULLAYEVA SHAHZODA FARMON QIZI

Abdullayeva Shahzoda Farmon qizi 2002-yil 24-sentabr sanasida Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanida tug‘ilgan. Uning texnikaga bo‘lgan qiziqishi Nukus konchilik institutiga boshlab keldi va hozirgi kunda mashinasozlik texnologiyasiga tegishli bo‘lgan Auto Cad, 3d Max va Kompas 3d dasturlarini o‘rganibgina qolmay, 30 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hamdir.

“Yil talabasi-2021” Respublika tanlovining institut bosqichida “Yilning eng ijodkor talabasi” nominatsiyasi bo‘yicha faxrli 1-o‘rinni egallagan. 2021-yil o‘tkazilgan an‘anaviy talabalar fan olimpiadasi I bosqichida "Fizika" fanidan faxrli 2-o‘rinni egallab, Respublika bosqichida ishtirok etgan. Oliy ta’lim muassasalari bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonni o‘zimiz, o‘z qo‘llarimiz bilan quramiz” shiori ostidagi esselar tanlovining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida “Eng yaxshi qadriyatlar o‘gitchisi” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan. “Yil talabasi-2022” Respublika tanlovining instituti bosqichida “O‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talaba” nominatsiyasida 1-o‘rinni egallagan. Ziyo-Forum tomonidan tashkil etilgan, “O‘zbekistonning TOP-100 talaba lideri” Almanaxidan joy olgan. Qoraqalpog‘iston “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi” tomonidan tashkil etilgan “INNOWOMENWEEK” haftaligida eng yaxshi innovatsion loyihasi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

- ❖ “Ixtirochi ayol-2022” tanlovining Qoraqalpog‘iston Respublika bosqicha “Iqtidorli qizning eng yaxshi innovatsion loyihasi” nominatsiyasida 1-o‘rinni egallagan.
- ❖ Ilmiy ishlari sababli “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazining 2022-yil, 5-

may kungi 9-sonli buyrug‘iga asosan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Ilm-fan sohasidagi xizmatlar uchun” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

2023-yilda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tomonidan tashkil etilgan, “Fan va texnika taraqqiyotida yoshlar” mavzusidagi iqtidorli talabalar va magistrantlar ilmiy-amaliy anjumanida “Yo‘nalishi bo‘yicha eng yaxshi tezis” nominatsiyasida g‘oliblikni qo‘lgan qiritgan. 2023-yil Zulfiya nomidagi davlat mukofotining “Fan” yo‘nalishi bo‘yicha Respublika bosqichi ishtirokchisiga aylangan.

2022-2023 o‘quv yili uchun “Islom Karimov” nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi bo‘lgan.

Ilmiy ishlari haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yo‘nalishiga mos holda quyidagi maqolalarni yozgan:

- ❖ 2021-yil “Молодой учёный” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2021-yil “Направления развития науки и образования” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2021-yil Fan, ta‘lim ishlab chiqarish integratsiyasi asosida tabiiy resurslardan foydalanish muammolari va ularning innovatsion yechimlari” nomida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasida maqolalari bilan;
- ❖ 2021-yil For active participation XI International Scientific and Practical Conference “Innovative technologies and engineering” konferensiyasida maqolasi bilan;
- ❖ “Determination of mechanical properties of metals and alloys” nomli maqolasining dolzarbligi tufayli ham, maxsus taklif orqali, “Вестник Карагандинского государственного индустриального университета” jurnalida chop etildi.
- ❖ 2021-yil “Лучшая исследовательская работа 2021 в Международном научно-исследовательском конкурсе” da maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Eurasian Journal of Academic Research” maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil Scientific-methodical journal of “Scientific progress” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Spanish Journal of innovation and integrity” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “European multidisciplinary journal of Modern science” jurnalida maqolasi bilan;

- ❖ 2022-yil “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiyalari sohasida zamonaviy muammolar va yechimlar” nomli Respublika ilmiy-texnik anjumanda maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Journal of Advanced Research and Stability” jurnalida maqola bilan;
- ❖ 2022-yil “Лучшие молодые ученые – 2022” nomli konkursda “Cutting forces in the process of metal cutting” nomli maqolasi bilan ishtirok etdi va chop etishga qabul etildi.
- ❖ 2022-yil “Central Asian Academic Journal Of Scientific Research” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education -2022” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “World Scientific Research Journal”jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Journal of new century innovations”jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hamda ularning iqtisodiyotga tatbiqi” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya”da maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Innovation in the modern education system” konferensiyasi”da tezisi bilan;
- ❖ 2022-yil “Galaxy International interdisciplinary research journal” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Ilm-fan va ta’limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” ko’p tarmoqli 24-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi” da tezisi bilan;
- ❖ 2022-yil “Development and innovation” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Innovation in the modern education system” jurnalida maqolasi bilan;
- ❖ 2022-yil “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi ko’p tarmoqli 41-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi” da “Ishlab chiqarishda avtomatik yuklash qurilmalarining afzalliklari” nomli maqolasi bilan faol ishtirok etgan.

Abdullayeva Shahzoda bundan-da yuksakroq yana ko‘plab yutuqlarga erishisiga tilakdoshmiz. Jonajon vatanimizning eng fidoyi, kuchki bilimli, o‘tkir zehnli farzandi bo‘lib yetishishiga ishonamiz.



Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi guvohnomasini, Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Raisi
Orinbayev Amanbay Tleubayevich tomonidan topshirilish jarayoni



BOBOKALONOVA SHAXRINOZ SUXROBOVNA

Bobokalnova Shaxrinoz Suxrobjon qizi 2005-yil 17-may kuni Buxoro shahrida tug‘ilgan. Bobokalnova Shaxrinoz Buxoro shahrida joylashgan 41-umumta’lim maktabini a’lo baholarga bitirgan. Maktab davridayoq bir nechta publitsistik maqolalar yozgan. Shu bilan birga bir necha tanlovlarda qatnashib o‘z iste’dodlarini ko‘rsata olgan. 2020-yil maktabda yoshlar ittifoqi tomonidan maktab sardorlaridan biri bo‘lgan va xuddi shu yilda o‘z maktabida “ Maktabning haftalik gazetasi “ga asos solgan. 2022-yilda Buxoro Davlat Universitetining Xorijiy tillar fakultetiga o‘qishga kirgan. Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o‘zini ko‘rsatib kelmoqda. Bilimlarni qunt bilan o‘rganishga harakat qiladi.. O‘z mas’uliyatligi, intizomligi va yuklatilgan vazifani o‘z vaqtida bajara olishi bilan o‘qituvchilar hurmatiga sazovor bo‘ldi. Uning faoliyatida dastlabki yillardanoq ilmga chanqoqlik, g‘ayrat, shijoatlik, o‘z dunyoqarashini rivojlantirib borish yo‘lida doimo izlanuvchanlik, fidoiylik xislatlari yaqqol sezilib turadi. Universitetda ta’limning ilk kunlaridan boshlab barcha fanlarni aloqa o‘zlashtirib kelmoqda.. Yil davomida bir necha voluntiorlik ishlarida muntazam qatnashib kelmoqda, voluntior tarjimonlik faoliyati shulardan biri hisoblanadi. Bir necha professorlar, X.L.Hamroyevna, B.R.Rajabovich kabi ustozlar bilan birgalikda tarjima nazariyasi muammolari va amaliyoti haqida ilmiy ish olib bormoqdi. Boshqa ingliz tilida erkin gaplasha oladi. Tarjima Shaxrinozning sevimli mashg‘uloti ya’ni o‘zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish qobiliyatlari juda yaxshi rivojlangan.

Quyida Bobokalonova Shaxrinozning erishgan yutuqlaridan namunalar:

2021-yil Buxoro shifokori gazetasida ketma-ket “Til - eng yuksak milliy qadriyat “ va “Bo‘lsa yuz navro‘z bayramlar” nomli maqolalari chop qilingan.

IELTS 6.0 sertifikat sohibasi. 2021-yil

“ Rudakiyning oliy ahloqiy fazilatlari “ nomli maqolasi :Buxoro shifokori” gazetasi tomonidan bosma nashr etilgan. 2022-yil

2023-yil bo‘lib o‘tgan “Translation and intercultural communication throught the English literature and linguistics” nomli xalqaro ilmoiy- amaliy anjumanda “Ingliz tilida o‘zbek she‘riyati tarjimasi muammolari “ nomli maqolasi bilan faol ishtirok etgan.

“ Bir million o‘zbek dasturchi “ o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan va sertifikatni qo‘lga kiritgan. 2023-yil


BuxDU iqtidorli talabalari tomonidan tashkil qilingan “My favourite university “ nomli esselar tanlovida qatnashdi va sertifikatga loyiq deb topildi.2023-yil

2023-yilda “ Registon stipendiyasi “tanlovida qatnashdi va sertifikat bilan taqdirlandi.

2023-yilda “Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha start-up loyilarini amalga oshirish 2 bosqichli kursni muvaffaqiyatli tamomlab sertifatga ega bo‘ldi.



Bobokalonova Shaxrinoz,
universitet dars mashg‘ulotlaridan
lavha.



ODINAYEV ABBOSBEK AKRAM O‘G‘LI

2001-yil 13-sentyabr kuni Surxondayo viloyati Sariosiyo tumanida tavallud topgan. 2008-2012-yillar davomida Sariosiyo tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tahsil olgan va 4-sinfni tamomlagandan so‘ng 4-sonli Bolalar futbol maktabiga qabul qilinib 9-sinfgacha ta’lim olgan. Maktabning so‘ngi yilini o‘zining ilk maktabida imtiyozli shahodatnoma bilan tamomlagan. Bu davr ichida Abbosbek Odinayevning she’r va maqolalari muntazam ravishda Sariosiyo tumanida faoliyat olib boradigan “Sariosiyo haqiqati” gazetasiga berib borilgan. Bundan tashqari, Futbol maktabida tahsil olish jarayonida tuman, viloyat va respublika miqyosida o‘tkazilgan futbol mutbol musobaqalarida faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan va o‘zining ilk “ONAJONIM DUOSI” deb nomlangan she’riy toplamini nashr qildirgan.

2017-2020- yillarda Sariosiyo tumanidagi Pedagogika kollejida Murabbiy instruktor yo‘nalishida tahsil olgan. O‘qish davomida “Yosh kitobxon” tanlovining viloyat bosqichida faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan. She’riyat sohasida ham yetarlicha bilimga ega bo‘lgan Abbosbek “Jaholatga qarshi ma’rifat” she’riy tanlovda faxrli uchinchi o‘rinni egallagan va o‘tkazilgan ko‘plab she’riy kecha va tadbirlarda ham faol bo‘lgan. Abbosbek Pedagogika kollejini ham a’lo baholar bilan imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

2020-yilda O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining Xorijiy ti va adabiyoti yo‘nalishiga shartnoma to‘lovi asosida talabalikka qabul qilingan va hozirda ushbu oliy o‘quv dargohining 3-bosqich talabasi. Odinayev Abbosbek universitetda o‘zining faolligi va tirishqoqligi bilan boshqa talabarga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. O‘tgan o‘quv yilida ingliz tilini baholashning xalqaro tizimi bo‘lgan IELTS imtihonida 6.5 ballni qo‘lga kiritdi va

hozirda bu natijani yangilash ustida yana ham qattiq harakat qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizda o‘tkazilayotgan milliy va xalqaro konfrensiya, musobaqa va siyosiy tadbirlarda volontyor-tarjimon sifatida ishtirok etib kelmoqda. 2022-yil O‘zbekistonda birinchi marta o‘tkazilgan Tashkent investment forum, 2022-yil YUNESKO tomonidan tashkil qilingan “Early childhood care and education” 2023-yilning aprel oyida o‘tkzilgan Referendum va boshqa ko‘plab tadbirlar shular jumlasidandir. Bu kabi ishtiroklar davomida o‘zi volontyorlik qilgan delegatsiyasi bilan birga O‘zbekiston xalq ta’limi vaziri va Turizm vazirlari uchrashuvlarda ishtirok etib tarjimonlik qilgan va sertifikatlarni qo‘lga kiritga. Hozirda ham 2023-yil 9-iyul kuni o‘tkaziladigan muddatdan oldingi saylov jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Odinayev Abbosbek universitetda iqtidorli talabar ro‘yxatiga kiritilgan bunga asosiy sabab uning har bitta vazifaga ma’suliyat bilan kreativ yondashishidadir. Talabalikka qabul qilinganing ikkinchi yilidan boshlab Abbosbek o‘zi tahsil olayotgan fakultetning Sport va tashkiliy ishlar bo‘yicha yoshlar etakchisi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Fakultet tomonidan tashkil qilingan zakovat terma jamoasining sardori va bu jamoa bilan birga universitet miqyosida o‘tkazilgan rektor kubogida ikki safar sovrindor bo‘lgan. Bundan tashqari, fakultetda tashkil qilinadiga ko‘plab tadbirlarda boshlovchi va futbol bo‘yicha universitet terma jamosining sardori hisoblanadi.

Odinayev Abbosbek 2022-yil sport sohasida erishgan yutuqlari va faol bo‘lganligini hisobga olgan holda universitet tomonidan Sportchi stipendiyasi bilan taqdirlandi. 2023-yilning bahorida esa O‘zbekiston xalq shoiri bo‘lgan Aleksandr Faynbergning hayotini o‘rganib va uning qoldirgan boy ijodiy ishlari bo‘yicha qilgan ilmiy ishlari uchun Faynberg nomli stipendiyani ham qo‘lga kiritdi.

Hozirda, ilmiy rahbari bo‘lgan ingliz tili uchinchi fakulteti dekani Zafar Abdusamadov bilan ingliz tilini qanday qilib o‘rganuvchilarga interaktiv ya’ni qiziqarli va oson bo‘lgan yo‘llari orqali o‘rgatish to‘g‘rida maqolalar yozib, ularni muntazam ravishda milliy va xalqaro jurnallarda nashr qildirib kelmoqda va diplom va sertifikatlariga ham ega bo‘lmoqda. 2022- yil Mustaqil Davlatlari Hamdo‘stligida tomonidan tashkil qilingan

tadbirda Abbosbekning jo‘natilgan ilmiy ishlari maq‘ul deb topilib “ Ta‘lim sohasidagi xizmatlari” uchun ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Shu bilan bir qatorda, Odinayev Abbosbek o‘zining ilmiy tadqiqot mavzusi va adabiyotga doir mavzularda 20 dan ortiq maqola va tezislarni yozib e‘lon qildi. Jumladan:

1. “Onajonim duosi” she‘riy to‘plami. “Sariosiyo haqiqati” nashriyoti
2. Modern methods of teaching English. Международный научный журнал “Научный импульс” Vol.5 Issue 4 Январь, 2023
3. “The role of intellectual games in activating the educational process” Международный научный журнал. “Новости образования: исследование в XXI веке”
4. “Analysis of stylistic means and features of Alexander Feinberg’s poems”. Innovations in technology and science education. ISSN: 2181-371X Vol.2 Issue 8 2018
5. The primary stage of foreign language teaching through activities. Sustainability of education, socio- economic science theory. Part 4 December 7th Collections of scientific works HELSINKI 2022
6. Issues of teaching speaking Uzbek languages to students. International journal of education, social sciences & Humanities. Vol.11 Issue 2 2023
7. Cross-sectional study of metaphor in Uzbek and English languages. Ijodkor o‘qituvchi Respublika jurnali
8. Shamol va qamishlar (she‘riyat). O‘zbekistonda ta‘lim Respublika jurnali. ISSN: 2181-3744 26-aprel 2023
9. Kubraviylik ta‘limoti va Alisher Navoiy ijodi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 8-son 13-mart, 2023

Odinayev Abbosbek Akram o‘g‘li kelajakda top 100 talikka kirgan universitetda ta‘lim olib uni o‘z yurtining yosh avlodlari bilan birga baham ko‘rish va ularni ham katta-katta marralarni zabt etishga ruhlantirishga qo‘ldan kelgan darajada harakat qiladigan yoshlari qatoriga kiradi. Hayotdagi eng oliy maqsadlaridan biri bu O‘zbekistondagi yoshlar orasida “ Kitobxon jamiyat “ loyihasini amalga oshirish va bu orqali barcha qatlamdagilarni

bunga jalb qilishdir. Abbosbekka kelajakdagi faoliyatlarida muvaffaqiyat hamroh bo‘lishini tilaymiz.



Odinayev Abbosbek "Scientific Academy" ilm ma'rifat markazining 2023-yil 3-sonli buyrug'iga asosan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan "Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun" esdalik ko'krak nishoni bilan tantanali taqdirlash marosimidan lavha.



JO‘RAYEV ANVARJON AKRAMJON O‘G‘LI

1999-yil 19-avgust sanasida Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa tumanida tavallud topgan. 2006-2015-yillar mobaynida Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida taxsil olgan. Yoshlik davridan ilmga chanqoq bo‘lgan

Anvarjon Jo‘rayev o‘zining tirishqoqligi va a’lo baholari orqali o‘qituvchilari va tengdoshlariga ko‘rsatib beradi. U maktab davrida turli-xil bilimlar bellashuvi va fan olimpiadalarida qatnashib faxrli o‘rinlarni egallaydi va mehnatlarining samarasi o‘laroq, barcha fanlardan a’lo baho olgan holda, maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan tamomlaydi.

2015-2018-yillar davomida Qo‘rg‘ontepa tumanidagi Iqtisodiyot kollejida, buxgalteriya ishi yo‘nalishida tahsil oladi. O‘qish mobaynida nafaqat iqtisodiy bilimlarini mustahkamlaydi balki xorijiy tillarga bo‘lgan muhabbati va eng so‘ngi yangiliklar birinchi bo‘lib ingliz tilida ommaga taqdim etilishi va bu orqali doimo zamon bilan hamnafas yurish mumkin ekanligini bilgan holda, ingliz tilini chuqur o‘rganishni boshlaydi.

2019-2020-yillarda Jo‘rayev Anvarjon vatan oldidagi burchini ado etish maqsadida Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida joylashgan 19950-sonli harbiy qismga qabul qilinadi. Harbiy xizmat davomida Anvarjon ham jismonan ham ma’nan rivojlanadi va harbiy qismda tashkil etilgan o‘quv dasturlarida faol qatnashadi. 2020-yilning yanvar oyida harbiy qismda DTM tomonidan tashkil etilgan testda qatnashib, oliy ta’lim muassasiga kirish uchun harbiy qism tavsiyanomasini va harbiy qism qo‘mondonining tashakkurnomasini qo‘lga kiritadi.

Harbiy xizmatdan qaytgach, 2020-yilning oktyabr oyida O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining xorijiy til adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi. O‘qish davrida o‘zining bilimlarini mustahkamlash va pedagogik salohiyatini rivojlantirish maqsadida abituriyentlarga ingliz tilidan dars beradi. O‘quvchilarining 4 nafari Toshkent davlat yuridik institutining talabalari bo‘lishga muvaffaq bo‘ldilar.

Bundan tashqari Anvarjon ijtimoiy ko‘rik tanlovlarda, universitet tomonidan tashkil etilgan forumlarda va zakovat o‘yinlarida faol qatnashadi. 2022-yilning may oyida hududlar miqyosida tashkil etilgan “zakovat” ko‘rik tanlovining tuman bosqichida ishtirok etib, jamoa bilan faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritadi. 2023-yilning mart oyida Yoshlar Ishlari Agentligi tomonidan tashkil etilgan Ibrat & Wiki oromgohining ishtirokchisiga aylanadi. Tillar oromgohida muvaffaqiyatli ishtirok etib, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sadullayev tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

Anvarjonning kelajakda yurtimiz koriga yaraydigan, bilimli, o‘tkir zehqli salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shishiga ishonamiz. Kelgusi ilm, fan sohasidagi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.



Jo‘rayev Anvarjon Ibrat & Wiki oromgohida faol ishtirok etib, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sadullayev tomonidan sertifikat bilan tantanali taqdirlanish jarayonidan lavha

Mundarija

Esanov Azizbek Shermamat o‘g‘li.....	4
Toshboyeva Laylo Jurayevna.....	8
Yaxyopo‘latova Nilufarxon Botirjon qizi.....	11
Qo‘ziyeva Shahrizoda G‘ayrat qizi.....	16
Saidov Olimjon Amon o‘g‘li.....	19
Qobulova Gulzoda Maxsud qizi.....	22
Alisherova Dilshoda Azizxon qizi.....	25
Rashidova Durdona Umidjon qizi.....	28
Ergashev Izzatillo Ahror o‘g‘li.....	32
Esanova Lutfiya Shermamat qizi.....	34
Xurramova Lobarxon Akramjonovna.....	38
Umarqulova Diyora Sanjar qizi.....	42
Abdutolibova Barchinoy G‘ofurovna.....	45
Yaxyopo‘latova Rayxona Botirjon qizi.....	48
Baxromova Shohsanam Ibadullayevna.....	50
Jo‘rayev Jamshid Baxodir o‘g‘li.....	53
Abdullayeva Shahzoda Farmon qizi.....	56
Bobokalonova Shaxrinoz Suxrobovna.....	60
Odinayev Abbosbek Akram o‘g‘li.....	62
Jo‘rayev Anvarjon Akramjon o‘g‘li.....	66

OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
ILMIY-INNOVATSION ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH BO‘LIMI

“YANGI O‘ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI YOSHLARI”
Respublika miqyosidagi iqtidorli yoshlar biografik to‘plami
Antologiya

Tahrir hay’ati

Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi xodimlari hamda
“Filologiya masalalari” elektron ilmiy-metodik jurnali muharrirlari umumiy tahriri ostida.

To‘plamdan o‘rin olgan ma’lumotlar saviyasi, sifati va dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun
mualliflar mas’uldirlar.

69 sahifadan iborat elektron to‘plam

Toshkent 2023